

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**QURILISH SOHASIDAGI DAVLAT XARIDLARI TIZIMI
TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING AYRIM HUJJATLARIGA
O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA**

Qurilish sohasidagi davlat xaridlari tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-408-son [qaroriga](#) hamda qaror ijrosini ta‘minlash yuzasidan yuklatilgan qo‘shimcha topshiriqlarga muvofiq:

2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar dasturlari (keyingi o‘rinlarda — dasturlar) tasdiqlanganligi;

dasturlarni amalga oshirish doirasida bosh loyihachi va. bosh pudrat tashkilotlarini “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda — elektron tizim) orqali qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov (tender) orqali aniqlash belgilanganligi;

bosh loyihachi va bosh pudrat tashkilotlarini tanlash bo‘yicha tenderlarni o‘tkazish muddatlarini qisqartirish, davlat xaridlari bo‘yicha elektron tizimga tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda elektron tizimning uzluksiz ishlashini ta‘minlash vazifalari yuklatilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

qurilish sohasida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibotlarini takomillashtirish;

oyiha-qidiruv tashkilotlarini elektron davlat xaridlari platformasida tanlash tizimini yangidan joriy etish;

loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotlarining reyting ballarini hisoblash mezonlarini soddalashtirish;

elektron tender yakuni bilan loyihalashtirish va pudrat shartnomasini avtomat ravishda imzolash;

qurilish sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsion omillarni bartaraf etish;

qurilishi tugallangan obyektlar bo'yicha 12 oy kafolat muddati o'tgandan so'ng, obyekt bo'yicha hisoblangan 5 foizlik kafolat summasi pudrat tashkilotining hisobraqamiga inson omilisiz avtomatik ravishda o'tkazilishi;

tenderlarni o'tkazish muddatlarini qisqartirish.

3. Manfaatdor vazirliklar va idoralar — o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari A.J. Ramatov va O'zbekiston Respublikasi qurilish vaziri B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 23-noyabr,
665-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-noyabrdagi 665-son qaroriga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan
o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining "Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 9-noyabrdagi 699-son qarorida:

a) 2-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Reytingning asosiy yo'nalishlari, mezonlari va har bir mezon bo'yicha belgilanadigan ballar hamda baholash metodikalari va reytingni shakllantirishning oylik muddatiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar Qurilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-43-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi bilan kelishgan holda kiritiladi.";

b) Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomning:

5-bandi quyidagi tahrirdagi yangi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Moliyaviy mezonlar, yuridik shaxsning ro'yxatdan o'tgan manzili haqidagi ma'lumotlar hamda iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (IFUT) yillik, qolgan mezonlar esa oylik ma'lumotlar asosida shakllantiriladi.";

3-ilovasining oxirgi pozitsiya chiqarib tashlansin hamda quyidagi tahrirdagi izoh bilan to'ldirilsin:

Izoh. Reytingning asosiy yo'nalishlari, mezonlari va har bir mezon bo'yicha belgilanadigan ballar hamda baholash metodikalari va reytingni shakllantirishning oylik muddatiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar Qurilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda PQ-43-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi bilan kelishgan holda kiritiladi”;

v) 4-ilovaning izohi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Izoh. Reytingning asosiy yo'nalishlari, mezonlari va har bir mezon bo'yicha belgilanadigan ballar hamda baholash metodikalari va reytingni shakllantirishning oylik muddatiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar Qurilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda PQ-43-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi bilan kelishgan holda kiritiladi.”.

2. Vazirlar Mahkamasining “Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarorida:

a) qaror matnida:

1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Quyidagilar:

Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.”;

quyidagi tahrirdagi yangi band bilan to'ldirilsin:

“2. Belgilab qo'yilsinki:

maqsadli dasturlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasining budget tizimi budgetlarining, shuningdek, budget tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlarni (keyingi o'rinlarda — obyektlar) loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash uchun loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotlarini faqat davlat xaridlari elektron tizimining elektron tender savdolari platformasi (keyingi o'rinlarda — platforma) orqali reyting ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi;

belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig'i va ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ijobiy ekspertiza xulosalari olingandan so'ng 3 ish kunida dastlabki manzilli ro'yxatni

kelishish uchun elektron shaklda taqdim etishi va manzilli ro'yxat tasdiqlangandan so'ng 3 ish kuni ichida platformada pudratchini aniqlash bo'yicha e'lonni joylashtirish buyurtmachi tomonidan ta'minlanishi shart;

tender savdolari predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi aylanma mablag'lar bo'lishi yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi talabi bekor qilinadi;

obyektning boshlang'ich narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifni ta'minlash kafolat summasini loyiha-qidiruv va pudrat tashkiloti tomonidan platforma operatorining hisobraqamiga o'tkazish va tender yakunidan so'ng loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotining hisobraqamiga avtomatik ravishda qaytarish tizimi joriy etiladi;

xarid komissiyasi faoliyati bekor qilinib, uning funksiyasini platforma tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi;

qurilish sohasidagi davlat xaridlarini (keyingi o'rinlarda — xaridlar) amalga oshirishda umumiy va texnik qismlar bo'yicha ma'lumotni taqdim etish talab etilmaydi;

loyiha-qidiruv va qurilish-montaj ishlari xususiyatidan kelib chiqqan holda, ixtisoslashtirilgan professional loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotini jalb etish tizimi yaratiladi;

davlat buyurtmachisi, loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotining affillanganlik xususiyati avtomatik ravishda tekshiriladi;

xaridlar jarayonlarida joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlar hajmi loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotining so'nggi uch yillik hisobot davrining bir yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmining 2 baravaridan oshgan oferentlar ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi;

yildan yilga o'tuvchi obyektlar bo'yicha moliyaviy majburiyatlar hajmini hisoblashda oferent yutib olgan obyektning tasdiqlangan loyiha-qidiruv va qurilish-montaj ishlari bo'yicha manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan moliyaviy mablag' bilan ta'minlangan hisobot yilida bajariladigan ishlar qiymatini inobatga olish tizimi joriy etiladi;

maqsadli dasturlarga kiritilgan obyektlarni raqamlashtirish (identifikatsiya xos raqamini berish) tizimi joriy etiladi;

tender natijalari bo'yicha g'olib deb topilgan loyiha va pudrat tashkilotlari ishlar (xizmatlar) narxining kamida oltmish foizini o'z kuchi bilan bajarishi shart;

obyekt bo'yicha tender g'olibi platformada akseptni tasdiqlagandan so'ng 1 ish kunidan keyin loyiha-smeta hujjatlarini

ishlab chiqish shartnomasi/pudrat shartnomasi avtomatik tarzda elektron imzolangan hisoblanadi hamda tegishli avans mablag'ini to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

tender savdolarida belgilangan narx qat'iy narx hisoblanadi, birinchi moliyaviy yil mobaynida narxlarga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan shartnomani bajarish muddatiga tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.”;

2 — 8-bandlar 3 — 9-bandlar deb hisoblansin;

2-bandda:

uchinchi xatboshidagi “pudrat tashkilotlari” so'zlaridan oldin “loyiha-qidiruv va” so'zlari qo'shilsin;

to'rtinchi xatboshidagi “boqimanda” so'zi “muddati o'tgan” so'zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “pudrat tashkilotlari reytingini” so'zlaridan oldin “loyiha-qidiruv va” so'zlari hamda “o'tkazish uchun” so'zlaridan keyin “loyiha-qidiruv va” so'zlari bilan to'ldirilsin;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Moliya vazirligi — platformaga e'lonni joylashtirish uchun obyekt bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'ida yetarli mablag' mavjudligi tasdiqlanishini va tender g'olibi bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va pudrat shartnomasi g'aznachilik tizimida avtomatik ravishda ro'yxatdan o'tganligini hamda tender g'olibi bilan avtomatik ravishda imzolanadigan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va pudrat shartnomasiga muvofiq avans ajratilishini ta'minlash imkonini beruvchi integratsiyalashgan dasturni ishga tushiradi”;

o'n to'qqizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Platforma loyiha-qidiruv va pudrat tashkiloti to'g'risidagi yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarni hamda Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi elektron ma'lumotlarini loyiha-qidiruv va pudrat tashkilotining elektron ishonchnomasi (roziligi) asosida oladi”;

quyidagi mazmundagi yigirmanchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Ushbu bandga muvofiq platformaga elektron shaklda taqdim etiladigan ma'lumotlarning haqqoniyligi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari javobgar hisoblanadilar”;

5-band quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Buyurtmachilar tomonidan obyektning o‘ziga xosligiga muvofiq moslashtiriladigan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda pudrat shartnomalarining namunalari Qurilish vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlanishi va platformaga joylashtirilishi belgilab qo‘yilsin.

Obyektlarni foydalanishga topshirish bo‘yicha dalolatnomalar tasdiqlangan kundan boshlab 12 oy kafolat muddati tugagandan so‘ng, foydalanuvchi tashkilotning asoslantirilgan e‘tirozi bo‘lmagan taqdirda, obyektlarning 5 foizlik kafolat summasini qurilish-pudrat tashkilotining hisobraqamiga inson omilisiz avtomatik ravishda o‘tkaziladi.”;

b) Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

Nizom **nomi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo‘yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”;

2-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“aksept — platforma tomonidan oferent elektron tender g‘olibi deb belgilangandan so‘ng ushbu oferentga tasdiqlash uchun avtomatik ravishda yuboriladigan elektron xabarnoma”;

to‘qqizinchi xatboshidagi “tenderlar” so‘zi “pudrat tashkilotlarini belgilash bo‘yicha tenderlarni” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o‘n oltinchi xatboshidagi “buyurtmachisi” so‘zi “buyurtmachisining topshirig‘iga muvofiq tender tashkilotchisi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o‘n sakkizinchi xatboshidagi “platforma operatori” so‘zlari “operator” so‘zi bilan almashtirilsin;

3-bandda:

birinchi xatboshidagi “shartnoma” so‘zi “pudrat shartnomasi” so‘zlari bilan almashtirilsin hamda quyidagi;

quyidagi mazmundagi yangi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Agarda obyektning boshlang‘ich qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 6000 baravaridan kam bo‘lsa, qurilish-pudrat tashkilotlarini tanlash mazkur nizom bilan o‘rnatilgan tartib asosida qonunchilikda belgilangan muddatda amalga oshiriladi”.

9-bandda:

“Bunda agar talabgor yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan hududda ushbu Nizom talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan shartnoma shartlariga ko'ra ishlarni yakunlamagan holda boshqa hududga yuridik manzilini ko'chirgan taqdirda, avvalgi yuridik manzil hududidagi shartnoma shartlariga ko'ra ishlar yakunlanmagunicha ushbu talabgor yangi yuridik manzil hududidagi elektron tenderlarga platforma tomonidan qo'yilmaydi” mazmunidagi yangi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin;

ikkinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin;

10-bandda:

“g” kichik banddagi “oferent” so'zi “talabgor” so'zi bilan almashtirilsin;

“d” kichik bandda:

birinchi xatboshidagi “oferent” so'zi “talabgor” so'zi bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “boqimanda” so'zi “muddati o'tgan” so'zlari almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi “hisobvarag'ida” so'zi “hisobraqamida” so'zi bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “qo'mitasining” so'zi “qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasining” so'zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi yangi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Transport vazirligi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasining elektron ma'lumotlar bazasidan yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasida ro'yxatga olingan obyektlar bo'yicha qurilishni yakunlash muddatidan o'tib ketmaganligini;

Moliya vazirligining G'aznachilik tizimidan ro'yxatdan o'tgan tender natijasida yoki to'g'ridan to'g'ri imzolagan pudrat shartnomalari ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni;”

sakkizinchi xatboshidagi “va” so'zi “o'rtasida hamda ushbu oferentlar bilan” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshidagi “ortiq” so'zidan keyin “yoki kam” so'zlari bilan almashtirilsin;

o'ninchi xatboshi chiqarib tashlansin;

“e” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“e) talabgor ushbu bandning “d” kichik bandida nazarda tutilgan talablardan ijobiy natijalar bilan o‘tganda oferent hisoblanadi hamda:

tender predmetining QQS bilan boshlang‘ich narxidan 2 foizdan ortiq bo‘lmagan tender taklifini ta‘minlash kafolati operator tomonidan ochilgan hisobraqamga pul o‘tkazadi;

ushbu Nizomga 2, 3, Za va 4-ilovalarga muvofiq shakllarni to‘ldirgan holda platformaga yuklaydi.

Bunda oferent g‘olib bo‘lgan taqdirda, tanlov shartlariga muvofiq elektron platformaga tender tashkilotchisi tomonidan yuklangan loyiha-smeta hujjatlaridagi ish hajmlarini to‘liq bajarish majburiyatini oladi”;

“j” kichik band quyidagi mazmundagi yangi uchinchi xatboshi to‘ldirilsin:

“Bunda obyektlar bo‘yicha tenderda g‘olib bo‘lgan yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma imzolagan hamda ushbu shartnoma bo‘yicha ishlarni yakunlamagan yoki joriy yil majburiyatlarini bajarmagan pudrat tashkiloti kalendar yil davomida platforma orqali yana boshqa obyekt bo‘yicha tenderda ishtirok etgan taqdirda, har bir yakunlanmagan shartnoma bo‘yicha uning reytingidagi jami balliga nisbatan (ularning reyting ko‘rsatkichi tushirilmagan holda) 5 foiz chegirma qo‘llaniladi. Ushbu talab g‘aznachilik tizimining amaldagi barcha tegishli shartnomalariga qo‘llaniladi (pudrat shartnomasi shartlari bajarilgan taqdirda chegirma avtomatik ravishda qaytib tiklanadi)”;

uchinchi — beshinchi xatboshilar to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

“z” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“z) g‘olib qurilish-pudrat tashkiloti tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida tender predmeti bo‘yicha platformaga yuklangan pudrat shartnomasi 1 ish kunidan keyin avtomatik ravishda elektron imzolangan hisoblanadi hamda avans mablag‘ini to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi”;

“i” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“i) davlat buyurtmachisi elektron imzolangan pudrat shartnomasi shartlarining bajarilishini ta‘minlaydi”;

“k” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“k) obyektning boshlang‘ich QQS bilan narxidan 2 foizdan ortiq bo‘lmagan tender taklifini ta‘minlash kafolat summasi belgilangan tartibda g‘olib/zaxira g‘olibi hamda oferentlarning bank hisobraqamlariga avtomatik ravishda platforma tomonidan:

bank xarajatlari;

akseptni tasdiqlagan g‘olib/zaxira g‘olibining kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to‘lash uchun tegishli summa ushlangan holda qaytariladi”;

11-bandda:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tender predmeti bo‘yicha platformaga tender predmetining nomi va shaxsiy hisobvarag‘ini kiritadi va shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida yetarli mablag‘ tasdiqlangandan so‘ng platformada tender tashkilotchisini tanlaydi hamda g‘olib/zaxira g‘olibi obyektning boshlang‘ich QQS bilan narxidan 2 foizdan ortiq bo‘lmagan tender taklifini ta‘minlash kafolat summasi hisobidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to‘lash sharti asosida ushbu tender tashkilotchisi bilan xizmat ko‘rsatish shartnomasini imzolaydi”;

to‘rtinchi xatboshidagi “hisobvaraqlaridan” so‘zi “hisobraqamlaridan” so‘zi bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “zarur hollarda” so‘zlari chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tender savdolarini tashkil etish bilan bog‘liq barcha (tanlov tashkilotchisi xarajatlaridan tashqari) xarajatlarni qoplaydi hamda belgilangan tartibda tender g‘olibi bilan aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda elektron imzolangan pudrat shartnomasi shartlarining bajarilishini ta‘minlaydi”;

13-bandda:

“b” kichik bandning to‘rtinchi xatboshidagi “joylaydi” so‘zi “joylashtirilishini ta‘minlaydi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“v” kichik bandning to‘rtinchi xatboshidagi “hisobvarag‘idan” so‘zi “hisobraqamidan” so‘zi bilan almashtirilsin;

“g” kichik band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“aksept tasdiqlagandan so‘ng tanlov tashkilotchisi xarajatlarining to‘lab berilishini ta‘minlaydi;

uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan "call center" tashkil etadi;

platformadagi qurilish-pudrat tashkilotlari reytingi hamda elektron tenderlar bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha davlat organlari va xo'jalik subyektlarining barcha murojaatlariga yozma va "call center" orqali javob beradi, platformadagi tekshirishlar bilan bog'liq tegishli o'rganishlarda qatnashadi, natijasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi";

15-banddagi "hisobvarag'iga" so'zi "hisobraqamiga" so'zi bilan almashtirilsin;

16-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"16. Operator quyidagi hollardan biri ro'y berganda, tender taklifini ta'minlash summasini bank xarajatlarini hamda pudrat shartnomasining aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda imzolagan g'olib/zaxira g'olibining kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini ushlagan holda uch ish kuni ichida:

pudrat shartnomasini aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda imzolagan g'olib/zaxira g'olibining kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to'lash uchun tegishli summa ushlangandan so'ng";

17-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"17. Elektron tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortganda (zaxiradagi g'olib bundan mustasno), tender taklifini ta'minlash kafolat summasi tender g'olibiga qaytarilmaydi, shuningdek, tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan kundan boshlab 24 oyga ushbu Nizomga muvofiq elektron tender savdolarida ishtirok etishiga avtomatik tarzda taqiq kiritiladi";

ikkinchi xatboshidagi "bank" so'zidan keyin "va tender tashkilotchisi" so'zlari qo'shilsin hamda "bir" so'zi "uch" so'zi bilan almashtirilsin;

23-bandda:

"a" kichik bandda:

ikkinchi xatboshidagi "mablag'lar" so'zidan keyin "manbasi va" so'zlari kiritilsin;

yettinchi xatboshidagi "va moliyalashtirish manbai" so'zlari chiqarib tashlansin;

"b" kichik bandda:

bashinchi xatboshidagi “hisobvarag‘idagi” so‘zi
“hisobraqamidagi” so‘zi bilan almashtirilsin;

o‘ninchi xatboshidagi “yetarli bo‘lmagan taqdirda” so‘zlaridan
keyin “ushbu Nizom talablariga muvofiq” so‘zlari qo‘shilsin;

o‘ninchi xatboshidan keyin quyidagi tahrirdagi yangi xatboshi
bilan to‘ldirilsin:

“g‘aznachilik tizimidagi ro‘yxatdan o‘tgan pudrat shartnomalari
shartlarini bajarilganligi”;

o‘n uchinchi xatboshidagi “ko‘p” so‘zidan keyin “yoki kam”
so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

o‘n to‘rtinchi xatboshidagi “hisobvarag‘iga” so‘zi
“hisobraqamiga” so‘zi bilan almashtirilsin;

25-bandda:

birinchi xatboshidagi “hisobvarag‘i” so‘zi “hisobraqami” so‘zi
bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi ikkinchi-bashinchi xatboshilar bilan
to‘ldirilsin:

“Tanlov tashkilotchisi xarajatlari tanlov natijasiga muvofiq
akseptni tasdiqlagan g‘olib/zaxira g‘olibi tomonidan avtomatik
ravishda qoplanadi.

Bunda:

tanlov tashkilotchisi xizmatining qiymati tanlov predmetining
boshlang‘ich narxidan 0,1 foiz hamda bazaviy hisoblash miqdorining
20 baravaridan oshmagan holda belgilanadi;

tanlov tashkilotchisi xarajatlarini to‘lash akseptni tasdiqlagan
g‘olib/zaxira g‘olibining tender taklifini ta‘minlash kafolati summasi
hisobidan avtomatik ravishda platforma tomonidan tanlov
tashkilotchisi hisobraqamiga o‘tkazib beriladi”;

34-bandda:

birinchi xatboshidagi “sanadan boshlab 2 ish kuni ichida”
so‘zlari “sanada” so‘zi bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Platforma tomonidan tender takliflari baholanishidan oldin
Nizomning 23-bandi “b” kichik bandi shartlari bo‘yicha oferentlarning
ko‘rsatkichlari qayta tekshiriladi. Ko‘rsatkichlar salbiy tomonga

o'zgargan taqdirda, platforma tomonidan ushbu oferent elektron tenderdan chetlashtiriladi”.

35-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagicha bayon etilsin:

“YaB = (RB x 0,8 + (BBN — ON) x 20 / (BBN — BBN x 0,95)) — O x (RB x 0,05).

Bunda:”;

beshinchi xatboshidagi “0,7” raqami “0,8” raqami bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

o'ninchi xatboshidagi “25” raqami “20” raqami bilan almashtirilsin;

o'n birinchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O — oferentning joriy kalendar yil davomida elektron tender platformasida yutib olgan obyektlari soni;

0,05 — obyektlar bo'yicha tenderda g'olib bo'lgan yoki to'g'ridan to'g'ri shartnoma imzolagan hamda ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlamagan yoki joriy yil majburiyatlarini bajarmagan pudrat tashkiloti kalendar yil davomida platforma orqali yana boshqa obyekt bo'yicha tenderda ishtirok etgan taqdirda, har bir yakunlanmagan shartnoma bo'yicha uning reytingidagi jami balliga nisbatan (ularning reyting ko'rsatkichi tushirilmagan holda) 5 foiz chegirma qo'llaniladi”;

o'n to'rtinchi xatboshidagi “25” raqami “20” raqami bilan almashtirilsin;

o'n beshinchi xatboshidagi “5 foizdan ko'p” so'zlaridan keyin “hamda boshlang'ich qurilish muddatidan ko'p yoki kam” so'zlari qo'shilsin;

32-band quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“tenderlarda g'olib deb topilgan oferentning elektron tender savdolari, shuningdek, elektron reyting shakllanish jarayonlarida o'z faoliyati to'g'risida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etganlik holati mutasaddi idoralar tomonidan aniqlangan taqdirda, Respublika shtabining asoslantirilgan rasmiy xati asosida Qurilish

vazirligi tomonidan ushbu oferent bo'yicha tuzilgan elektron bayonnoma bekor qilinadi.”;

36-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Platforma tomonidan elektron tender natijalarini hisoblash jarayonida oferentlarning umumiy ballari bir xil bo'lgan taqdirda, eng birinchi bo'lib taklifini taqdim etgan (sana, vaqt) oferent g'olib etib belgilanadi”;

37-bandi birinchi xatboshida “shakllantiriladi” so'zi “shakllantirilib, e'lon qilinadi” so'zlari bilan almashtirilsin;

39-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“39. Elektron tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash yakuni bo'yicha elektron bayonnoma shakllantirilganidan so'ng tenderda qatnashgan oferentlar o'z shaxsiy kabinetlari orqali o'zlarining yakuniy ballari, shu jumladan, elektron reytingidagi shaxsiy ballari hamda ularning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rishlari mumkin.”;

40-bandda:

birinchi xatboshidagi “sanadan boshlab 2 ish kuni ichida” so'zlari “sanada” so'zi bilan almashtirilsin hamda “ushbu 2 ish kuni yakunlangan kundan so'ng” so'zlari matndan chiqazilsin;

ikkinchi va uchinchi xatboshilaridagi “2” raqamlari “1” raqamlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi to'rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan kundan boshlab 24 oyga ushbu Nizomga muvofiq elektron tender savdolarida ishtirok etishiga avtomatik tarzda taqiq kiritiladi.

Agar akseptni tasdiqlagan g'olib tashkilot qurilish jarayonida ishlarni davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda, ushbu obyektدا bajarilgan qurilish-montaj ishlari va moliyalashtirilgan mablag'lar belgilangan tartibda hisob-kitob qilingandan so'ng obyektдаgi qoldiq ishlar bo'yicha qayta elektron tender savdolariga e'lon beriladi”;

41-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“41. Elektron tender natijalari bo'yicha g'olib akseptni tasdiqlashi bilan 1 ish kundan keyin pudrat shartnomasi elektron imzolangan hisoblanadi.

Elektron tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan hollarda, akseptni tasdiqlash huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda, elektron tender g'olibiga tender taklifini ta'minlash kafolati summasi qaytarib berilmaydi.

Zaxiradagi g'olib faqat tender g'olibi tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (agar zaxiradagi g'olib tomonidan taklif etilgan narx tender g'olibi tomonidan taklif etilgan narxdan baland bo'lsa) akseptni tasdiqlashi yoki tasdiqlashdan bosh tortishi mumkin.

Zaxiradagi g'olib akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan taqdirda, tender taklifini ta'minlash kafolat summasi bank xizmatlari ushlangan holda qaytarib beriladi hamda tender amalga oshmagan deb hisoblanadi va qaytadan o'tkaziladi. Bunda, tender tashkilotchisi tomonidan shartnomaga muvofiq ishlar bajarilmagan hisoblanadi va ushbu amalga oshirilmagan tender bo'yicha uning xarajatlari to'lab berilmaydi.

Tender g'olibi/zaxira g'olibi tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida pudrat shartnomasi elektron imzolangan deb hisoblangandan so'ng buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi PQ-4464-son qarorining 7-bandiga muvofiq elektron imzolangan pudrat shartnomasi Moliya vazirligining G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida ushbu shartnomaning QQsiz summasidan 0,05 foizi miqdoridagi mablag' axborot tizimining tegishli hisobraqamiga o'tkaziladi”;

42-bandning **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tender g'olibi/zaxira g'olibi tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida elektron imzolangan pudrat shartnomasi shartlarining bajarilishiga”;

44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Operator quyidagilar uchun javob beradi:

oferentlar tomonidan takliflarni platformaga muammosiz yuklanishiga;

elektron tender takliflari bo'yicha pudrat shartnomasi majburiyatlari bajarilishi tugallangandan so'ng belgilangan muddatda saqlanishiga;

oferentlar tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning e'lon amal qilishi muddati davomida oshkor etilmasligini ta'minlashga;

oferentlarning tijorat sirini muhofaza qilishga bo'lgan huquqlari kafolatlanishiga;

tender tartib-taomillarining boshqa belgilangan talablarining buzilmasligiga”;

48-bandda:

birinchi xatboshidagi “obyektning qiymatiga o'zgartirish kiritish hamda qoldiq qiymatlarini qayta aniqlashtirish Qurilish vazirligining xulosasiga asosan” so'zlari “buyurtmachi tomonidan Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (obyektlar bo'yicha manzilli ro'yxatlar mazkur vazirliklar bilan kelishilishini inobatga olgan holda) va Qurilish vazirligi bilan kelishgan holda” so'zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi tahrirdagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Bunda elektron imzolangan pudrat shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish yuzasidan qo'shimcha shartnoma bo'yicha ma'lumotlar platformaga yuklanmaydi. Elektron imzolangan pudrat shartnomasi ijrosi bo'yicha ma'lumotlar, shu jumladan, unga qo'shimcha shartnomalar g'aznachilik tizimi tomonidan integratsiya orqali platformaga yuboriladi”.

v) Nizomga 1-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish

TARTIBI

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Moliya vazirligining G'aznachiligi tizimida ro'yxatdan o'tadi.	Belgilangan muddatda
2-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Tender predmetining nomi va G'aznachilik tizimidagi shaxsiy hisobvarag'ini kiritadi. 2. Obyektning identifikatsiya raqamini kiritadi.	30 daqiqa
3-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Platformada tender tashkilotchisini tanlaydi hamda shartnoma imzolaydi.	2 ish kuni

		2. Elektron tender hujjatlarini tender tashkilotchisiga taqdim etadi.	
4-bosqich	Tender tashkilotchisi	<p>1. Elektron platformada ro'yxatdan o'tadi.</p> <p>2. Elektron tender hujjatlarining to'liqligi va to'g'riligini o'rganib chiqadi.</p> <p>3. Platformaga tender predmeti to'g'risidagi e'lonni joylashtiradi.</p>	3 ish kuni mobaynida
5-bosqich	Talabgor	<p>1. Elektron platformada ro'yxatdan o'tadi.</p> <p>2. E'longa muvofiq qurilish-montaj ishlari bajariladigan hududga (joyning o'ziga) chiqqan holda obyektни o'rganib chiqadi.</p> <p>3. 24 soat davomida xabardor qilish imkonini beradigan mobil telefon raqami va elektron manzilini platformaga kiritadi hamda shaxsiy kabinetini ochadi.</p>	10 ish kuni mobaynida
6-bosqich	Talabgor	Shaxsiy kabinetini orqali xarid predmeti bo'yicha tenderda qatnashish uchun platformaga STIR xos raqamini kiritadi.	5 daqiqa ichida
7-bosqich	Platforma	<p>Kiritilgan oferentning STIRi bo'yicha platforma vazirlik, tashkilot va tizimlarning ma'lumotlar bazasidan avtomatik tarzda quyidagilarni:</p> <p>a) "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimidan sohaviy elektron reytingda mavjudligi hamda xarid predmetining qiymati va xavf-xatar toifasiga mosligini;</p> <p>b) Davlat soliq qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasidan soliqlardan muddati o'tgan qarzdorligining mavjud emasligini hamda joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlari hajmi oferent tomonidan so'nggi uch yillik hisobot davrining bir</p>	10 daqiqa ichida

yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmi 2 baravardan oshmaganligini;

v) Markaziy bankning elektron ma'lumotlar bazasidan oferentning xizmat ko'rsatuvchi bankdagi asosiy va ikkilamchi hisobraqamida 2-son kartoteka qarzdorligi hamda bank kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligini;

g) Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining elektron ma'lumotlar bazasidan oferentning o'z balansidagi asosiy fondlariga va mulkiga taqiq qo'yilmaganligini;

d) Davlat statistika qo'mitasi va Soliq qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasidan joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlari hajmi oferent tomonidan so'nggi uch yillik hisobot davrining bir yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmi 2 baravardan oshmaganligini;

e) Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasining elektron ma'lumotlar bazasidan qurilish sohasidagi hududiy nazorat inspeksiyalarida ro'yxatga olingan obyektlar bo'yicha qurilishni yakunlash muddatidan o'tib ketmaganligini;

j) Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining elektron ma'lumotlar bazasidan platformada o'z taklifini biriktirgan oferentlar va davlat buyurtmachisi o'rtasida affillanganlik xususiyati mavjud emasligini;

z) ushbu bosqichdan ijobiy natijalar bilan o'tgan oferentlar Nizomga 2, 3, 4 va 5-illovalarni to'ldirgan holda platformaga yuklaydi. Platforma tizimda yuklangan QQS bilan taklif narxining QQS bilan boshlang'ich narxidan baland va 95 foizidan past emasligini, shuningdek, taklif etilgan qurilish muddati obyekt bo'yicha

		<p>belgilangan qurilish muddatidan ortiq yoki kam emasligini.</p> <p>Ushbu bosqichning yuqoridagi ko'rsatkichlaridan o'tgan talabgor oferent hisoblanadi hamda shundan so'ng platforma tender predmetining boshlang'ich QQS bilan narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati operator tomonidan ochilgan hisobraqamga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshirilganligini tekshiradi.</p>	
8-bosqich	Platforma	<p>1. Oferentlar takliflarini tegishli formula yordamida avtomatik ravishda baholaydi.</p> <p>2. G'olib va zaxiradagi g'olib tashkilotlarni aniqlaydi.</p>	Avtomatik ravishda
9-bosqich	Platforma	Baholash natijalari bo'yicha elektron hisobotni shakllantiradi va ochiq ko'rinishda joylashtiradi	5 daqiqa
10-bosqich	Platforma	Elektron tenderda g'olib bo'lgan qurilish-pudrat tashkilotiga aksept yuboradi.	10 daqiqa
11-bosqich	G'olib qurilish-pudrat tashkiloti	Akseptni tasdiqlagandan so'ng 1 kundan keyin tender predmeti bo'yicha pudrat shartnomasi elektron shaklda imzolangan hisoblanadi. Agar aksept yuborilgan kundan boshlab 1 kuni ichida g'olib tashkilot tomonidan tasdiqlanmasa, aksept zaxiradagi g'olibga yuboriladi va zaxiradagi g'olibga qo'shimcha 1 kuni ichida akseptni tasdiqlashga muddat beriladi.	1 kun ichida
12-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Tender predmeti bo'yicha elektron imzolangan pudrat shartnomasi shartlari bajarilishini nazoratga oladi.	shartnoma shartlariga muvofiq
13-bosqich	Platforma	Obyektning boshlang'ich QQS bilan narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati summasini g'olib va zaxiradagi g'olib tashkilotlar va oferentlarning bank hisobraqamiga bank xarajatlari hamda g'olib/zaxira g'olibining (aksept	3 ish kuni mobaynida

		tasdiqlangan taqdirda) kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to‘lash uchun tegishli summa ushlangan holda avtomatik ravishda qaytariladi.	
--	--	--	--

g) Nizomga 2-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo‘yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

(oferent nomi)

TENDER PREDMETI BO‘YICHA ISHLARNI BAJARISHGA NARX TAKLIFI

(tender predmetining nomi)

1. Biz, oferent sifatida quyida imzo chekuvchilar:

tender predmeti bo‘yicha e‘londa biriktirilgan loyiha asosida tender predmeti joylashgan manzilga chiqib o‘rganimizni;

pudrat shartnomasini imzolashdan yoki imzolangandan so‘ng obyektни qurishdan bosh tortganimizda, platforma tomonidan 24 oy davomida elektron tenderga avtomatik ravishda qo‘yilmasligimiz to‘g‘risida xabardorligimizni;

elektron tender shartlariga va loyiha hujjatlariga muvofiq akseptni tasdiqlashimiz natijasida avtomatik ravishda imzolangan pudrat shartnomamizga asosan barcha ishlarni so‘m (QQS ni hisobga olgan holda) sifatli bajarishimizni va taklif muddatimizda tugatishimizni tasdiqlaymiz.

2. Bizning taklifimiz tender takliflarini baholash kunidan boshlab 60 kalendar kun mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

3. Biz, g‘olib/zaxira g‘olibi — oferent platforma tomonidan yuborilgan akseptni tasdiqlashimiz, biz (oferent) siz (buyurtmachi) bilan avtomatik ravishda pudrat shartnomasini elektron imzolaganligimiz hamda ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatni olishimizni va uning ijrosini ta‘minlashimizni tasdiqlaymiz.

4. Qurilish jarayoniga jalb qilingan yollanma ishchilarning ijtimoiy himoyasi va xavfsizligini ta‘minlaymiz.

5. Buyurtmachi bilan o‘zaro hisob-kitoblarni birinchi moliya yili mobaynida o‘zgartirilmaydigan shartnomaviy narxda amalga oshirish majburiyatini olamiz.

Tashkilot rahbarining imzosi:

Tuzilgan sanasi: 20__ yil “__” _____”

d) quyidagi mazmundagi yangi Za-ilova bilan to'ldirilsin:

“Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga
3a-ILOVA

Jamlanma jadval, ishlarning fizik hajmlari va obyektga resurslar qaydnomasi, asosiy narxni shakllantiruvchi komponentlarga narxlar jadvali

(obyekt nomi)

(oferent nomi)

1.1. Jamlanma jadval

T/r	Xarajatlar nomi	Joriy narxlardagi umumiy summa
1.	Mehnatga haq to'lash fondi	
2.	Kichik mexanizatsiya vositalari	
3.	Mashina va mexanizmlar	
4.	Qurilish materiallari va konstruksiyalari	
5.	Uskuna va jihozlar	
	Jami	
6.	Pudrat tashkilotining boshqa xarajatlari	
	Jami qurilish-montaj ishlari qiymati (QQS bilan)	

Izoh. Mazkur jamlanma jadval elektron xarid g'olibi tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida elektron shaklda imzolanadigan shartnomaga ilova hisoblanadi.

Ishlarning fizik hajmlari va obyektga resurslar qaydnomasi

T/r	Me'yorlar shifri va raqami	Ishlar turi	O'lchov birligi	Loyiha ko'rsatkichlari bo'yicha ishlar hajmi	Hajmi	
					birlikka	summa
1.						
2.						
...						
	Jami:					

Izoh. Mazkur jadvalda oferent har bir ish turi uchun bir birlik ish hajmlari bo'yicha tanlov taklifida resurslarni aks ettirmasdan taqdim etadi hamda ushbu jadval elektron xarid g'olibi tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida elektron shaklda imzolanadigan shartnomaga 2-ilova hisoblanadi.

Tashkilot rahbari imzosi / muhri: _____

Tuzilgan sanasi:

20__ yil “__” _____”

g) Nizomga 4-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga
4-ILOVA

TENDER PREDMETI BO'YICHA MOLİYALASH TIRISH JADVALI

(tender predmetining nomi)

Moliyalashtirish shartlari	Tender predmeti bo'yicha kalendar yil ichida moliyalashtirishning oyma-oy taqsimoti											
	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
15 foiz miqdorida birinchi avans												
15 foiz miqdorida ikkinchi avans												
60 foiz miqdorida joriy moliyalashtirish												
5 foiz miqdorida kafolat muddatidan so'ng to'lanadigan mablag'												

Izoh. Jadvaldagi avans mablag'laridan tashqari oyma-oy taqsimlanadigan moliyaviy mablag'lar miqdori ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq taqsimlanadi. Bunda agar, tender predmeti bo'yicha ishlarni yakunlash muddati bir kalendar yildan oshgan taqdirda, ushbu moliyalashtirish jadvali faqat birinchi yilda bajariladigan ishlar qiymatidan kelib chiqib taqsimlanadi.

Tashkilot rahbarining imzosi:

Tuzilgan sanasi: 20__ yil "___" _____"

d) qarorga 2-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qaroriga
2-ILOVA

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini aniqlash bo'yicha davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom maqsadli dasturlarga muvofiq davlat budjeti mablag'lari, O'zbekiston Respublikasining budget tizimi

budjetlarining, shuningdek, budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish borasidagi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan tender savdolari uchun tatbiq etiladi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

aksept — platforma tomonidan oferent elektron tender g'olibi deb belgilangandan so'ng ushbu oferentga tasdiqlash uchun avtomatik ravishda yuboriladigan elektron xabarnoma;

davlat buyurtmachisi — davlat xaridlarini amalga oshiruvchi davlat organlari va muassasalari, budjet tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan budjet tizimi budjetlari mablag'larini oluvchilar;

joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlar hajmi — oferentning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi bo'yicha joriy yilda bajarish majburiyati qiymati. Bunda yildan yilga o'tuvchi tender predmeti bo'yicha moliyaviy majburiyatlar hajmini hisoblashda, oferent yutib olgan tender predmetining tasdiqlangan kelgusi yil loyiha-qidiruv ishlari bo'yicha manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan hisobot yilida bajariladigan ishlar qiymati inobatga olinadi;

zaxiradagi g'olib — elektron tender yakuniga ko'ra platforma tomonidan g'olib deb e'tirof etilgan oferentning tender taklifidan keyingi tender taklifi eng maqbul deb e'tirof etilgan oferent;

loyihashtirish topshirig'i — quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyektning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishdan oldin texnik qoidalar va talablarni hisobga olgan holda buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlariga bo'lgan umumiy talabi;

operator — davlat xaridlari subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi, davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxs;

oferent — elektron reytingda mavjud bo'lgan, qurilish sohasidagi elektron tenderda qatnashish va g'olib bo'lish maqsadida o'z taklifini platformaga elektron shaklda joylashtirgan loyiha-qidiruv tashkiloti;

talabgor — ofertasi platforma tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar e'londa ko'rsatilgan shartlarga muvofiq elektron

tenderda qatnashish istagi bo'lgan hamda elektron reytingida mavjud bo'lgan loyiha-qidiruv tashkiloti;

tenderni o'tkazish bo'yicha maxsus axborot platformasi — qurilish sohasida davlat xaridlari amalga oshirilishi, xaridlar to'g'risidagi e'lonlar, xarid qilish tartib-taomillari, oferentlarning takliflari, xaridlar yakunlari haqidagi va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotlar elektron shaklda joylashtirilishini va ko'rilishini, shuningdek, loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha tenderlarni elektron o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayt va maxsus elektron platforma (keyingi o'rinlarda — platforma);

tender predmeti — loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyekt bo'yicha ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlari;

tender taklifi — elektron tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq tender predmetiga nisbatan oferentning platforma orqali elektron shaklda taqdim etilgan taklifi;

tender taklifini ta'minlash kafolati — tender predmetining boshlang'ich narxidan (QQS bilan) 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati bo'lib, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yaxlitlangan miqdorda belgilanadi;

tender tashkilotchisi — qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha elektron tender hujjatlarining to'liqligini hamda muvofiqligini o'rganib chiquvchi, e'lonni platformaga joylashtiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot;

elektron tender — qurilish sohasida davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida tender predmetining ijrochisini aniqlashni nazarda tutuvchi elektron mexanizm bo'lib, uning natijasiga ko'ra tender predmeti bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif etgan oferent g'olib deb e'tirof etiladi;

elektron tender hujjatlari — tender predmetining moliyaviy, tijorat, tashkiliy va boshqa tavsiflari hamda tenderni tashkil etish shartlari va o'tkazish tartib-taomillari to'g'risidagi dastlabki axborotni o'z ichiga oluvchi, davlat buyurtmachisi tomonidan tayyorlanadigan elektron hujjatlar to'plami;

e'lon — davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisining topshirig'iga muvofiq

tender tashkilotchisi tomonidan joylashtiriladigan bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi axborot;

loyiha-qidiruv tashkilotlarining elektron reytingi — "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida loyiha-qidiruv tashkilotlarining kadrlar bilan ta'minlanganligi, moliyaviy ko'rsatkichlari, raqobatbardoshligi, ish tajribasi va litsenziya ko'rsatkichlari bo'yicha mezonlarga muvofiq malaka talablarini belgilovchi hamda boshqa reyting ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiradigan elektron platforma;

loyihalashtirish sohasidagi davlat xaridlarining subyektlari (tender ishtirokchilari) — davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi, operator va loyiha-qidiruv tashkilotlarining elektron reytingida mavjud bo'lgan talabgor / oferentlar;

g'olib — elektron tender yakuniga ko'ra platforma tomonidan g'olib deb e'tirof etilgan oferent.

3. Mazkur Nizom davlat buyurtmachilarining barcha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha elektron tenderlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Agarda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarining boshlang'ich qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 6000 baravaridan kam bo'lsa, loyiha-qidiruv tashkilotlarini tanlash mazkur nizom bilan o'rnatilgan tartib asosida qonunchilikda belgilangan muddatda amalga oshiriladi.

4. Davlat buyurtmachisi elektron tenderlarni operatorlar orqali onlayn rejimda o'tkazadi.

Qurilish vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi hamda operator o'rtasida elektron axborot almashinuvini yo'lga qo'yadi.

5. Mazkur Nizom qoidalari:

O'zbekiston Respublikasining Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa maqsadli dasturlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi qarorlarida nazarda tutilgan davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlari bo'yicha loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingida mavjud bo'lgan loyiha-qidiruv tashkilotlarini aniqlashda;

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarining, shuningdek, budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish sohasidagi xaridlarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasining Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa maqsadli dasturlarda nazarda tutilgan davlat budjeti mablag'lari bilan birga budjetdan tashqari mablag'lar jalb qilingan bo'lsa, loyiha-qidiruv tashkilotlari mazkur Nizom talablari asosida aniqlanadi.

6. Mazkur Nizomning amal qilishi:

davlat tomonidan qo'riqlanishi lozim bo'lgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartibni saqlash uchun davlat xaridlari, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridlariga, shuningdek, "fast-track" usulidagi qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta'mirlashga;

Vazirlar Mahkamasining zaxira fondidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman va shaharlar budjetlari zaxira fondlaridan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan davlat xaridlariga;

xalqaro moliya institutlari mablag'lari (to'liq yoki qisman) hisobidan amalga oshiriladigan qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishga;

bosh reja, hududlarning arxitektura — rejalashtirish loyihalarini va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

7. Obyektlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan "Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq" va unga buyurtmachi tomonidan ilova qilinadigan hujjatlarsiz elektron tender o'tkazish to'g'risidagi e'lonni platformaga joylash taqiqlanadi.

"Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq" va unga ilova qilinadigan (buyurtmachi tomonidan tayyorlanadigan)

hujjatlar, jumladan ish turiga qarab nuqson dalolatnomalari tarkibi Qurilish vazirligining buyrug'i bilan o'zgartirish kiritish mumkin.

8. Loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan I va II toifadagi obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha o'tkaziladigan elektron tenderda faqat o'sha hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri)da yuridik shaxs sifatida tegishli elektron reytingdagi yuridik manzilda ro'yxatga olingan talabgorlar qatnashadi (Toshkent shahri va Toshkent viloyati yagona hudud deb qabul qilinadi). Hududlarda filiallari mavjud bo'lgan bosh loyiha institutlariga ushbu cheklov tatbiq etilmaydi.

Bunda agar, talabgor yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan hududda ushbu Nizom talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan shartnoma shartlariga ko'ra ishlarni yakunlamagan holda boshqa hududga yuridik manzilini ko'chirgan taqdirda, avvalgi yuridik manzil hududidagi shartnoma shartlariga ko'ra ishlar yakunlanmagunicha ushbu talabgor yangi yuridik manzil hududidagi elektron tenderlarga platforma tomonidan qo'yilmaydi.

Loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan III va IV toifadagi obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha o'tkaziladigan elektron tenderda hududiy cheklov tatbiq etilmaydi.

Avtorlik nazorati xarajatlari oferentlarning 3-ilovaga muvofiq narx taklifida ko'zda tutilishi shart.

2-bob. Elektron tenderni o'tkazish tartibi

9. Elektron tender ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) davlat buyurtmachisi:

Moliya vazirligining axborot tizimida belgilangan tartibda shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochadi;

platformada ro'yxatdan o'tib, tender predmetining identifikatsiya raqamini kiritadi;

platformada tender tashkilotchisini tanlaydi hamda shartnoma imzolaydi;

elektron tender hujjatlarini tender tashkilotchisiga taqdim etadi;

b) tender tashkilotchisi:

elektron tender hujjatlarining to'liqligi va to'g'riligini o'rganib chiqadi;

platformaga tender predmeti to'g'risidagi e'lonni joylashtiradi;

v) talabgor:

e'longa muvofiq loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladigan qurilish, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyektning joylashadigan/joylashgan hududiga chiqqan holda tender predmeti bilan bog'liq masalalarni o'rganib chiqadi;

24 soat davomida xabardor qilish imkonini beradigan mobil telefon raqami va elektron manzilini platformaga kiritadi hamda shaxsiy kabinetini ochadi;

g) talabgor shaxsiy kabinetini orqali tender predmeti bo'yicha tenderda qatnashish uchun platformaga o'zining CTPIP xos raqamini kiritadi;

d) platforma talabgor kiritgan STIR bo'yicha vazirlik, tashkilot va tizimlarning ma'lumotlar bazasidan quyidagilarni avtomatik tarzda:

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidan loyiha-qidiruv tashkilotlarining elektron reytingida mavjudligini hamda oferent litsenziyasining tender predmeti talablariga mosligini;

Davlat soliq qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasidan soliqlardan muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligini;

Markaziy bankning elektron ma'lumotlar bazasidan oferentning xizmat ko'rsatuvchi bankdagi asosiy va ikkilamchi hisobraqamida 2-son kartoteka qarzdorligi hamda bank kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligini;

Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining elektron ma'lumotlar bazasidan oferentning o'z balansidagi asosiy fondlariga va mulkiga taqiq qo'yilmaganligini;

Davlat statistika qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasidan joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlari hajmi oferent tomonidan so'nggi uch yillik hisobot davrining bir yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmi 2 baravaridan oshmaganligini;

Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining elektron ma'lumotlar bazasidan platformada o'z taklifini biriktirgan oferentlar o'rtasida hamda ushbu oferentlar bilan davlat buyurtmachisi o'rtasida affillanganlik xususiyati mavjud emasligini;

Moliya vazirligining G'aznachilik tizimidan ro'yxatdan o'tgan tender natijasida yoki to'g'ridan to'g'ri imzolagan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomalari ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

platformaning o'z tizimidan obyektning QQS bilan boshlang'ich narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati operator tomonidan ochilgan hisobraqamga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshirilganligini tekshiradi;

platformaning o'z tizimidan oferentning QQS bilan taklif narxining tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan baland emasligini hamda bazaviy hisoblash miqdorining (BHM):

300 baravarigacha bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 5 foizdan past emasligini;

1500 baravarigacha bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 10 foizdan past emasligini;

3000 baravarigacha bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 15 foizdan past emasligini;

3000 baravaridan yuqori bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 20 foizdan past emasligini;

shuningdek, taklif etilgan loyihalashtirish muddati tender predmeti bo'yicha belgilangan muddatdan ortiq emasligini;

e) talabgor ushbu bandning "d" kichik bandida nazarda tutilgan talablardan ijobiy natijalar bilan o'tganda oferent hisoblanadi hamda:

tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati operator tomonidan ochilgan hisobraqamga pul o'tkazadi;

ushbu Nizomga 3 — 5 ilovalarni to'ldirgan holda platformaga yuklaydi.

Bunda oferent g'olib bo'lgan taqdirda, tanlov shartlariga muvofiq elektron platformaga tender tashkilotchisi tomonidan yuklangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi;

j) platforma:

oferent takliflarini ushbu Nizomning 35-bandida keltirilgan formula yordamida avtomatik ravishda baholaydi.

Bunda ushbu nizom kuchga kirgan kundan boshlab tenderda g'olib bo'lgan yoki to'g'ridan to'g'ri loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasini imzolagan va ushbu shartnoma bo'yicha

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni yakunlamagan loyiha-qidiruv tashkiloti kalendar yili davomida platforma orqali yana boshqa tenderda ishtirok etgan taqdirda, har bir yakunlanmagan shartnoma bo'yicha uning reytingidagi jami balliga nisbatan (reyting ko'rsatkichi tushirilmagan holda) 2 foiz chegirma qo'llaniladi.

Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha shaharsozlik ekspertizasining ijobiy xulosasi olingandan so'ng, chegirma avtomatik ravishda tiklanadi;

g'olib va zaxiradagi g'olib tashkilotlarni aniqlaydi;

baholash natijalari bo'yicha elektron hisobotni shakllantiradi va ochiq ko'rinishda joylashtiradi;

elektron tenderda g'olib bo'lgan oferentga aksept yuboradi;

z) g'olib loyiha-qidiruv tashkiloti tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida tender predmeti bo'yicha platformaga yuklangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi 1 ish kunidan keyin avtomatik ravishda elektron imzolangan hisoblanadi hamda avans mablag'ni to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

i) obyektning QQS bilan boshlang'ich narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolat summasi belgilangan tartibda g'olib / zaxira g'olibi hamda oferentlarning bank hisobraqamlariga avtomatik ravishda platforma tomonidan:

bank xarajatlari;

akseptni tasdiqlagan g'olib/zaxira g'olibining kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to'lash uchun tegishli summa ushlangan holda qaytariladi.

3-bob. Elektron tender ishtirokchilarining vazifalari

10. Davlat buyurtmachisi:

Moliya vazirligining elektron axborot tizimida ro'yxatdan o'tgandan so'ng ushbu tizim bilan integratsiya qilingan platformada tegishli elektron raqamli imzosidan (keyingi o'rinlarda — ERI) foydalangan holda, maqsadli dasturlarda nazarda tutilgan qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyiha-qidiruv tashkiloti belgilanmagan bo'lsa, platformaga tegishli ma'lumotlarni kiritadi;

tender predmeti bo'yicha platformaga tender predmetining nomi va shaxsiy hisobvarag'ini kiritadi va shaxsiy g'azna hisobvarag'ida yetarli mablag' tasdiqlangandan so'ng platformada tender tashkilotchisini tanlaydi hamda g'olib/zaxira g'olibi obyektning boshlang'ich QQS bilan narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender

taklifini ta'minlash kafolat summasi hisobidan tanlov tashkilotchisi xarajatlari avtomatik to'lanishi sharti asosida ushbu tender tashkilotchisi bilan xizmat ko'rsatish shartnomasini imzolaydi;

agar shaxsiy g'azna hisobvarag'idan tashqari bank hisobraqamlaridan moliyalashtirish belgilangan bo'lsa, moliyalashtirish manbai to'g'risidagi ma'lumotnomani platformaga yuklagan holda tasdiqlaydi;

tender tashkilotchisiga elektron tender hujjatlarini to'liq taqdim etadi;

tender savdolarini tashkil etish bilan bog'liq barcha (tanlov tashkilotchisi xarajatlaridan tashqari) xarajatlarni qoplaydi hamda belgilangan tartibda tender g'olibi bilan aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta'minlaydi;

bir vaqtning o'zida oferent bo'la olmaydi.

11. Tender tashkilotchisi:

davlat buyurtmachisi tomonidan taqdim etilgan elektron tender hujjatlari to'liqligini va to'g'riligini ko'pi bilan 3 ish kuni davomida o'rganib chiqadi;

agar elektron tender hujjatlarida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, ularni davlat buyurtmachisiga qaytaradi;

e'lonni platformaga joylashtiradi;

platformaga joylashtirilgan e'longa davlat buyurtmachisining asosli so'rovi bilan belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritadi;

qurilish sohasida elektron davlat xaridlari bo'yicha Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi uchun belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

bir vaqtning o'zida buyurtmachi va/yoki oferent bo'la olmaydi.

12. Operator:

a) Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimida ro'yxatdan o'tgan davlat buyurtmachisi uchun:

24 soat davomida xabardor qilish imkonini beradigan mobil telefon raqamlari va elektron manzillari platformaga kiritilishini hamda avtomatik ravishda shaxsiy kabinet ochilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi PQ-4464-son qarorining 7-bandiga muvofiq 0,05 foiz miqdoridagi

mablag'lar bo'yicha "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — axborot tizimi) xizmatlari bo'yicha davlat buyurtmachisining qarzdorligi bo'lmagan taqdirda, yuridik shaxs ERLsidan foydalangan holda obyektning identifikatsiya raqami kiritilishini hamda lot raqami berilishini ta'minlaydi;

b) tender tashkilotchisi uchun:

tender tashkilotchilari ro'yxatini platformaga yuklaydi;

24 soat davomida xabardor qilish imkonini beradigan mobil telefon raqami va manzili elektron platformaga yuklanishini va avtomatik ravishda shaxsiy kabinet ochilishini ta'minlaydi;

tender predmeti bo'yicha e'lonlar platformaga joylashtirilishini ta'minlaydi;

v) loyiha-qidiruv tashkilotlarining elektron reytingda mavjud bo'lgan talabgor va oferent uchun:

24 soat davomida xabardor qilish imkonini beradigan mobil telefon raqami va manzili elektron platformaga kiritilishini, avtomatik ravishda shaxsiy kabinet ochilishini hamda e'lon shartlari bilan to'liq tanishishni ta'minlaydi;

loyiha-qidiruv tashkilotlari tomonidan so'nggi uch yillik hisobot davrining bir yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmining 2 baravari bo'yicha joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlar hajmi tegishli tizim bilan integratsiya qilingan platforma tomonidan to'g'ri hisoblanishini ta'minlaydi;

tender taklifini ta'minlash kafolat summasini o'tkazish uchun platformadagi shaxsiy kabinetdan platformaning maxsus hisobraqamiga pul o'tkazishda foydalanishni hamda undagi o'tkazilgan mablag'larni ushbu Nizomda belgilangan tartibda qaytarilishini yoki buyurtmachining tegishli hisobvarag'iga jo'natilishini ta'minlaydi;

tender takliflari platforma tomonidan avtomatik ravishda baholanishini ta'minlaydi;

g) shu bilan birga, operator:

e'lon shartlariga elektron tender hujjatlari tarkibiga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilgan taqdirda, davlat buyurtmachisini, tender tashkilotchisini va oferentlarni elektron xabardor qiladi;

elektron tender natijalari bo'yicha tegishliligiga ko'ra davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va oferentlarga platforma orqali avtomatik ravishda xabar yuboradi;

tender ishtirokchilarini elektron tender jarayonida belgilangan tartib asosida ishtirok etishlarini ta'minlaydi;

idoralararo ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan platforma har kuni 24 soat davomida uzluksiz ishlashini qat'iy nazorat qiladi;

aksept tasdiqlagandan so'ng tanlov tashkilotchisi xarajatlari to'lab berilishini ta'minlaydi;

uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan "call center" tashkil etadi;

platformadagi loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingi hamda elektron tenderlar bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha davlat organlari va xo'jalik subyektlarining barcha murojaatlariga yozma va "call center" orqali javob beradi, platformadagi tekshirishlar bilan bog'liq tegishli o'rganishlarda qatnashadi, natijasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi.

13. Davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va oferent tomonidan platformada yuridik shaxs ERIsidan noto'g'ri foydalanilgan taqdirda, operator javobgar hisoblanmaydi hamda ushbu holat "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida tartibga solinadi.

4-bob. Elektron tender taklifini ta'minlash tartibi

14. Elektron tender taklifini ta'minlash kafolati bo'yicha platformada shaxsiy kabinetdan ro'yxatdan o'tgan oferent operator tomonidan ochilgan hisobraqamiga pul o'tkazish yo'li orqali to'lovni amalga oshiradi.

15. Operator quyidagi hollardan biri ro'y berganda, tender taklifini ta'minlash summasini bank xarajatlari hamda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasining aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda imzolagan g'olib/zaxira g'olibining kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini ushlagan holda uch ish kuni ichida:

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasining aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda imzolagan g'olib / zaxira g'olibining kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to'lash uchun tegishli summa ushlangandan so'ng;

zaxiradagi g'olib va g'olib bo'lmagan oferentlarga elektron tender o'tkazilgandan so'ng;

elektron tender bekor qilingandan so'ng (amalga oshmagan holatlarda) barcha oferentlarga;

belgilangan tartibda takliflarni qaytarib olgan oferentlarga tender takliflarini yuborishning oxirgi muddati tugagan kundan so'ng qaytaradi.

16. Elektron tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortganda (zaxiradagi g'olib bundan mustasno), tender taklifini ta'minlash kafolat summasi tender g'olibiga qaytarilmaydi, shuningdek, tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan kundan boshlab 24 oyga ushbu Nizomga muvofiq elektron tender savdolarida ishtirok etishiga avtomatik tarzda taqiq kiritiladi.

Bunda tender taklifini ta'minlash kafolatining qaytarilmagan summasi platforma tomonidan avtomatik ravishda davlat buyurtmachisining tegishli hisobvarag'iga bank va tender tashkilotchisi xarajatlari ushlangan holda uch ish kuni ichida o'tkazib beriladi.

5-bob. Davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va loyiha-qidiruv tashkilotlarining shaxsiy kabineti

17. Davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va talabgor platformada o'z ERIsidan foydalangan holda ma'lumotlarni kiritib, ro'yxatdan o'tganidan so'ng avtomatik tarzda shaxsiy kabinet shakllanadi.

18. Davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va oferentning shaxsiy kabinetida mobil telefon raqami, elektron manzili, reyting balli va ushbu ballni hisoblab chiqish yoyilmasi, tender g'olibi va zaxiradagi g'olibning, shuningdek, qolgan oferentlarning platforma tomonidan avtomatik baholangan ballari va ushbu ballarni hisoblanish yoyilmasi hamda yakuniy elektron bayonnoma aks ettiriladi.

Davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va oferentning talablari asosida qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa ma'lumotlar shaxsiy kabinetga kiritilishi mumkin.

19. Talabgor elektron tenderda qatnashish uchun shaxsiy kabinetidagi ushbu Nizomning 22-bandi "b" kichik bandida ko'rsatilgan shartlar bo'yicha operatorga idoralararo ma'lumotlar bazalaridan o'zi haqidagi ma'lumotlar platforma tomonidan avtomatik ravishda tekshirilishiga roziligini yuridik shaxs ERIsi bilan tasdiqlashi lozim bo'ladi.

20. Davlat buyurtmachisi, tender tashkilotchisi va oferent haqida hamda yakunlangan elektron tenderlar to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli elektron arxivga yuboriladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

6-bob. Elektron tenderni o'tkazish to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

21. Elektron tenderni o'tkazish to'g'risidagi e'lon davlat buyurtmachisi taqdim etgan elektron tender hujjatlarining to'liqligi va to'g'riligi tender tashkilotchisi tomonidan o'rganib chiqilgandan so'ng platformaga joylashtiriladi.

22. E'londa quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

a) tender predmeti bo'yicha:

kelgusi yil uchun loyiha-qidiruv ishlari manzilli ro'yxatida joriy yil uchun nazarda tutilgan mablag'lar manbasi va miqdori;

nomi, manzili va identifikatsiya raqami;

ishlarni amalga oshirish turi (quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish);

quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyektlarning xavf-xatar toifasi;

boshlang'ich narx (QQS bilan) va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni yakunlash muddati;

tender taklifini ta'minlash kafolati;

talabgor tomonidan taklifni kiritish muddati;

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish kalendar ish jadvali hamda loyiha-qidiruv ishlari uchun smeta hisobi ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish topshirig'i va unga ilovalar;

b) platformaga taklifni elektron joylashtirish sanasida talabgorga nisbatan qo'yiladigan shartlar:

tender predmetining qiymati va xavf-xatar toifasiga qarab loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingida ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lganligi;

soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

"Insofsiz ijrochilar" yagona reyestrda qayd etilmaganligi;

asosiy va ikkilamchi hisobraqamlarida 2-son kartoteka qarzdorligining mavjud emasligi;

Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida shubhali korxonalar ro'yxatiga kiritilmaganligi;

soliq to'lovchi sifatida uning guvohnomasi faolligi;

bank kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarning mavjud emasligi;

o'z balansidagi asosiy fondlarga, mulklariga taqiq qo'yilmaganligi;

g'aznachilik tizimidagi ro'yxatdan o'tgan tender natijasida yoki to'g'ridan to'g'ri imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi shartlari bajarilganligi;

joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlari hajmi talabgor tomonidan so'nggi uch yillik hisobot davrining bir yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmi 2 baravardan oshmaganligi. Bunda platforma tomonidan talabgorning moliyaviy majburiyatlari qoldiq hajmi tender predmetining boshlang'ich narxi (QQS bilan) bilan solishtiriladi. Talabgorning moliyaviy majburiyatlari qoldiq hajmi yetarli bo'lgan taqdirda, ushbu Nizom talablariga muvofiq bir nechta tenderlarda ishtirok etishi taqiqlanmaydi;

taklif etilgan narxning (QQS bilan) boshlang'ich narxdan (QQS bilan) baland emasligi hamda bazaviy hisoblash miqdorining (BHM):

300 baravarigacha bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 5 foizdan past emasligi;

1500 baravarigacha bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 10 foizdan past emasligi;

3000 baravarigacha bo'lgan tender predmetining KQS bilan boshlang'ich narxidan 15 foizdan past emasligi;

3000 baravaridan yuqori bo'lgan tender predmetining QQS bilan boshlang'ich narxidan 20 foizdan past emasligi;

shuningdek, taklif etilgan loyihalashtirish muddati tender predmeti bo'yicha belgilangan muddatdan ortiq yoki kam emasligi;

tender taklifini ta'minlash kafolat summasi operator hisobraqamiga o'tkazilganligi.

Tender ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatga ega aloqalari bo'lgan va/yoki tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan oferentlar tenderga qo'yilmaydi.

Ushbu bandning "b" kichik bandidagi shartlarga to'g'ri kelmagan talabgorning takliflari platforma tomonidan qabul qilinmaydi.

23. Davlat buyurtmachisining farmoyishi (buyrug'i) asosida talabgordan takliflarni qabul qilish muddati platformada tender

predmeti e'lon qilingan kundan boshlab 12 ish kunidan kam va 30 ish kunidan ko'p bo'lmasligi lozim.

Davlat buyurtmachisi e'londa turgan tender predmeti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-43-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy shtablar bilan kelishgan holda tender predmeti bo'yicha takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kunidan oldin elektron tender hujjatlariga asosli o'zgartishlar kiritish to'g'risida farmoyish (buyruq) qabul qilishga haqli.

Bunda elektron tender hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan kundan boshlab taklif berish muddati kamida 10 ish kuniga uzaytiriladi, lekin ushbu e'lon bo'yicha takliflarni qabul qilish umumiy muddati 30 ish kunidan oshmasligi lozim.

7-bob. Talabgorning elektron tenderga kirish tartibi

24. Elektron tenderda ishtirok etish uchun talabgor ushbu Nizom 23-bandining "b" kichik bandi shartlari talablaridan ijobiy o'tgan taqdirda, o'zining shaxsiy kabinetidagi maxsus xisobraqami orqali operatorga vositachilik yig'imi uchun to'lovni amalga oshiradi. Ushbu to'langan mablag' elektron tender natijalaridan qat'i nazar talabgorga/oferentga qaytarilmaydi.

25. Elektron tenderda yagona oferent ishtirok etganda yoki birorta ham oferent ishtirok etmaganda, davlat buyurtmachisi elektron tenderga kirish uchun oferentlarga nisbatan qo'yilgan elektron reyting bahoni bir darajaga pasaytirish huquqiga ega.

Elektron tenderda tender predmeti bo'yicha belgilangan minimal reyting talabi sababli (boshqa sabablar bundan mustasno) belgilangan muddatda yagona oferent o'z taklifini joylashtirgan bo'lsa yoki birorta ham oferent taklif joylashtirmagan bo'lsa, ushbu tender predmeti bo'yicha belgilangan minimal reyting talabi platforma tomonidan tender predmetining qiymati o'zgartirilmagan holda avtomatik tarzda bir ko'rsatkichga kamaytiriladi.

26. Agar tender predmeti bo'yicha ishlarni bajarish (xizmatlarni ko'rsatish) bilan bog'liq faoliyat qonunchilik hujjatlariga muvofiq tegishli litsenziya turini talab etsa, elektron tenderda faqat tegishli litsenziyaga ega bo'lgan oferentlar ishtirok etadi.

8-bob. Elektron tender taklifini berish tartibi

27. Talabgor ushbu Nizomning 23-bandini "b" kichik bandi shartlariga mos kelgan taqdirda, talabgor shaxsiy kabinetdan foydalangan holda elektron tender hujjatlarini to'ldirish va yuklash

yo'li bilan platformaga taklifini ERI bilan tasdiqlab, belgilangan muddatdan kechiktirmay joylashtiradi.

28. Takliflarni qabul qilish muddati tugagunga qadar oferent o'z takliflariga o'zgartirishlar kiritish yoki qaytarib olish huquqiga ega.

29. Platforma tomonidan tender takliflarining qabul qilinishi platformada joylashtirilgan e'londa belgilangan kun tugashi bilan (soat 23:59:59 da) to'xtatiladi.

9-bob. Platforma tomonidan elektron tender takliflarini baholash

30. Elektron tender quyidagi hollarda amalga oshmagan deb hisoblanadi:

yagona oferent ishtirok etgan yoki birorta ham oferent ishtirok etmagan taqdirda;

baholash jarayonida ushbu Nizom 23-bandining "b" kichik bandi shartlariga muvofiq platforma tomonidan oferentlar qayta o'rganilganda, yagona oferent qoldirilganda yoki birorta ham oferent qoldirilmagan taqdirda;

agar bitta lotda ikkita oferent ishtirok etayotgan bo'lsa va ushbu oferentlardan biri bir va undan ortiq lotlarda o'z takliflarini joylashtirgan bo'lsa hamda ushbu oferent ixtiyoriy bitta lotda g'olib deb belgilanib, moliyaviy majburiyatlari hajmi 2 baravardan oshgan taqdirda;

g'olib va zaxiradagi g'olib loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasini tuzishni rad etgan taqdirda;

tenderlarda g'olib deb topilgan oferentning elektron tender savdolari, shuningdek, elektron reyting shakllanish jarayonlarida o'z faoliyati to'g'risida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etganlik holati mutasaddi idoralar tomonidan aniqlangan taqdirda, Respublika shtabining asoslantirilgan rasmiy xati asosida Qurilish vazirligi tomonidan ushbu oferent bo'yicha tuzilgan elektron bayonnoma bekor qilinadi.

31. Tender amalga oshmagan deb hisoblangan taqdirda, davlat buyurtmachisi tomonidan tender tashkilotchisiga tender bo'yicha e'lenni platformaga qayta joylashtirish bo'yicha ko'rsatma beriladi.

Shu bilan birga, aksept tasdiqlangunga qadar belgilangan tartibda tender predmetini amalga oshirish to'xtatilgan taqdirda yoki tender predmeti bo'yicha qurilish-loyihalashtirish tashkiloti ushbu Nizom talablarida belgilangan tartibdan tashqari holda aniqlangan taqdirda, tender amalga oshmagan deb hisoblanadi.

32. Oferentlar tomonidan taqdim etilgan tender takliflari elektron platforma tomonidan tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugagan sanada baholanadi.

Platforma tomonidan tender takliflari baholanishidan oldin Nizomning 23-bandi "b" kichik bandi shartlari bo'yicha oferentlarning ko'rsatkichlari qayta tekshiriladi. Ko'rsatkichlar salbiy tomonga o'zgargan taqdirda, platforma tomonidan ushbu oferent elektron tenderdan chetlashtiriladi.

Oferentning umumiy ballari yig'indisini yakuniy hisoblash uchun har bir oferent bo'yicha platforma tomonidan avtomatik rejimda hisoblanadigan quyidagi formula qo'llaniladi:

$$YaB = (RB \times 0,8 + (BBN - ON) \times 20 / (BBN - BBN \times 0,95 / 0,90 / 0,85 / 0,80)) - O \times (RB \times 0,02).$$

Bunda:

YaB — oferentning yakuniy balli;

RB — elektron reyting doirasida hisoblangan ball;

0,8 — loyiha-qidiruv tashkilotlarining elektron reytingi doirasida olingan ballning umumiy yakuniy balldagi ulushini aniqlovchi koeffitsiyent;

BBN — davlat buyurtmachisining boshlang'ich narxi (QQS bilan). Bunda agar qonunchilikda belgilangan tartibda boshlang'ich narx QQSsiz bo'lsa, ushbu formulada belgilangan tartibdagi QQSsiz qiymatlar hisobga olinadi;

ON — oferent tomonidan taklif etilgan narx (QQS bilan). Bunda agar qonunchilikda belgilangan tartibda taklif narxi QQSsiz bo'lsa, ushbu formulada belgilangan tartibdagi QQSsiz qiymatlar hisobga olinadi;

20 — oferent tomonidan taklif etilgan narx uchun interpolatsiya yo'li bilan beriladigan ball;

0,95 / 0,90 / 0,85 / 0,80 — taklif narxining (QQS bilan) boshlang'ich narxdan (QQS bilan) ushbu Nizom 9-bandining "d" kichik bandiga muvofiq 5, 10, 15 va 20 foizdan ko'p kamaytirilishi mumkin emasligi koeffitsiyenti;

O — oferentning joriy kalendar yil davomida elektron tender platformasida yutib olgan obyektlar soni;

0,02 — obyektlar bo'yicha tenderda g'olib bo'lgan yoki to'g'ridan to'g'ri shartnoma imzolagan hamda ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlamagan loyiha-qidiruv tashkiloti kalendar yil davomida

platforma orqali yana boshqa obyekt bo'yicha tenderda ishtirok etgan taqdirda, har bir yakunlanmagan shartnoma bo'yicha uning reytingidagi jami balliga nisbatan (ularning reyting ko'rsatkichi tushirilmagan holda) qo'llaniladigan 2 foiz chegirma;

oferent tender taklifini eng kam narx bilan bergan taqdirda, unga 20 ball beriladi hamda formulaning ikkinchi qismi, ya'ni — $(BBN - ON) \times 20 / (BBN - BBN \times 0,95 / 0,90 / 0,75 / 0,80)$ ifodasi hisoblanmaydi.

Talabgor o'z takliflarini platformaga joylashtirishi mobaynida uning chegirmasi boshlang'ich narxga nisbatan ushbu Nizom 9-bandining "d" kichik bandiga muvofiq 5, 10, 15 va 20 foizdan ko'p hamda boshlang'ich loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish muddatidan ko'p yoki kam bo'lgan taqdirda, platforma tomonidan ushbu taklif qabul qilinmaydi.

33. Platforma tomonidan elektron tender natijalariga muvofiq g'olib va zaxiradagi g'olib avtomatik ravishda aniqlanadi.

Platforma tomonidan elektron tender natijalarini hisoblash jarayonida oferentlarning umumiy ballari bir xil bo'lgan taqdirda, eng birinchi bo'lib taklifini taqdim etgan (sana, vaqt) oferent g'olib etib belgilanadi.

34. Elektron tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash yakuni bo'yicha elektron bayonnoma shakllantirilib e'lon qilinadi va unda quyidagi axborotlar aks ettiriladi:

elektron tender takliflarini ko'rib chiqish, baholash sanasi va vaqti;

elektron tender takliflarini baholash natijasi;

elektron tender g'olibi va zaxiradagi g'olib haqidagi ma'lumot.

35. Agar oferent uning moliyaviy majburiyatlarining qoldiq hajmi yetarli bo'lib, bir nechta tenderda ishtirok etgan taqdirda, elektron tenderda platforma tomonidan faqat moliyaviy majburiyatlarining qoldiq hajmi yetarli bo'lgan tender predmeti bo'yicha g'olib deb belgilanadi.

36. Elektron tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash yakuni bo'yicha elektron bayonnoma shakllantirilganidan so'ng tenderda qatnashgan oferentlar o'z shaxsiy kabinetlari orqali o'zlarining yakuniy ballari, shu jumladan, elektron reytingidagi shaxsiy ballari hamda ularning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rishlari mumkin.

10-bob. Elektron tender natijalari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasini tuzish

37. Elektron tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugagan sanada platforma tomonidan avtomatik ravishda tender g'olibi aniqlanadi va g'olib tashkilotga aksept yuboriladi.

Aksept g'olib tashkilot tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab tender tugallangan deb hisoblanadi.

Agar aksept yuborilgan kundan boshlab 1 ish kuni ichida g'olib tashkilot tomonidan tasdiqlanmasa, ushbu g'olib tashkilot loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasini imzolashdan bosh tortgan hisoblanadi va belgilangan tartibda aksept zaxiradagi g'olibga yuboriladi.

Zaxiradagi g'olib tomonidan 1 ish kuni ichida aksept tasdiqlanmagan taqdirda, tender amalga oshmagan deb hisoblanadi va qaytadan o'tkaziladi.

Tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan kundan boshlab 24 oyga ushbu Nizomga muvofiq elektron tender savdolarida ishtirok etishiga avtomatik tarzda taqiq kiritiladi.

Agar akseptni tasdiqlagan g'olib tashkilot loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida ishlarni davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlari va moliyalashtirilgan mablag'lar belgilangan tartibda hisob-kitob qilingandan so'ng tender predmeti bo'yicha qayta elektron tender savdolariga e'lon beriladi.

38. Elektron tender natijalari bo'yicha g'olib akseptni tasdiqlashi bilan 1 ish kundan keyin loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi elektron imzolangan hisoblanadi.

Elektron tender g'olibi akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan hollarda, akseptni tasdiqlash huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi.

Zaxiradagi g'olib faqatgina tender g'olibi tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (agar zaxiradagi g'olib tomonidan taklif etilgan narx tender g'olibi tomonidan taklif etilgan narxdan baland bo'lsa) akseptni tasdiqlashi yoki tasdiqlashdan bosh tortishi mumkin.

Zaxiradagi g'olib akseptni tasdiqlashdan bosh tortgan taqdirda, tender taklifini ta'minlash kafolat summasi bank xizmatlari ushlangan holda qaytarib beriladi hamda tender amalga oshmagan deb hisoblanadi va qaytadan o'tkaziladi. Bunda tender tashkilotchisi xarajatlari to'lab berilmaydi.

Tender g'olibi / zaxira g'olibi tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi elektron imzolangan deb hisoblangandan so'ng buyurtmachi

tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi PQ-4464-son qarorining 7-bandiga muvofiq elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi Moliya vazirligining G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida ushbu shartnomaning QQSsiz summasidan 0,05 foizi miqdoridagi mablag' axborot tizimining tegishli hisobraqamiga o'tkaziladi.

11-bob. Elektron tender ishtirokchilarining javobgarligi

39. Davlat buyurtmachisi quyidagilar uchun javob beradi:

Quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyektning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyihalashtirish topshirig'ining talab darajasida to'g'ri ishlab chiqilganligiga;

tender g'olibi/zaxira g'olibi tomonidan aksept tasdiqlanishi natijasida elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi shartlarining bajarilishiga.

40. Tender tashkilotchisi quyidagilar uchun javob beradi:

davlat buyurtmachisidan olingan hujjatlarni ko'pi bilan 3 ish kuni davomida o'rganib chiqishi va ularning belgilangan tartibda e'longa joylashtirishi;

e'longa joylashtirilgan elektron ma'lumotlarning to'liqligiga, to'g'riligiga va bir-biriga muvofiqligiga.

41. Operator quyidagilar uchun javob beradi:

oferentlar tomonidan takliflar platformaga muammosiz yuklanishiga;

elektron tender takliflari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi majburiyatlari bajarilishi tugallangandan so'ng belgilangan muddatda saqlanishi;

oferentlar tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning e'lon amal qilish muddati davomida oshkor etilmasligini ta'minlash;

oferentlarning tijorat sirini himoya qilishga bo'lgan huquqlari kafolatlanishiga;

tender tartib-taomillarining boshqa belgilangan talablari buzilmasligiga.

42. Oferent o'zi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ishonchliligi uchun javob beradi.

43. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi tomonidan tashkil etiladigan elektron tender savdolarining haqqoniy va shaffof o‘tkazilishi yuzasidan Qurilish vazirligi javobgar hisoblanadi.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

44. Elektron tender natijalarini rasmiylashtirish, aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarni tashkil etish, ushbu shartnomaning majburiyatlari bajarilishi monitoringini olib borish hamda shikoyatlar, nizo va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom talablariga muvofiq o‘tkaziladigan elektron tender bo‘yicha shikoyatlar, nizo va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish uchun ishchi organ etib Qurilish vazirligi belgilanadi.

45. Mazkur Nizom talablariga muvofiq tuzilgan shartnomalar bo‘yicha qurilish muddatini uzaytirish buyurtmachi tomonidan Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (obyektlar bo‘yicha manzilli ro‘yxatlar mazkur vazirliklar bilan kelishilishini inobatga olgan holda) hamda Qurilish vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi shartlariga o‘zgartirish kiritish yuzasidan qo‘shimcha shartnoma bo‘yicha ma‘lumotlar platformaga yuklanmaydi. Elektron imzolangan shartnoma ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar, shu jumladan, unga qo‘shimcha shartnomalar g‘aznachilik tizimi tomonidan integratsiya orqali platformaga yuboriladi.

46. Operator tenderga taalluqli barcha hujjatlarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanishini ta‘minlaydi.

47. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo‘yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
1-ILOVA

Loyihalashtirish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish

TARTIBI

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddatlar
------------	------------	--------------------------------	-----------

1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Moliya vazirligining G'aznachiligi tizimida ro'yxatdan o'tadi.	Belgilangan muddatda
2-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Elektron platformada ro'yxatdan o'tadi. 2. Tender predmetining nomi va g'aznachilik tizimidagi shaxsiy g'azna hisobvarag'ini kiritadi.	30 daqiqa
3-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Platformada tender tashkilotchisini tanlaydi hamda xizmat ko'rsatish shartnomasini imzolaydi. 2. Elektron tender hujjatlarini tender tashkilotchisiga taqdim etadi.	2 ish kuni
4-bosqich	Tender tashkilotchisi	1. Elektron platformada ro'yxatdan o'tadi. 2. Elektron tender hujjatlarining to'liqligi va to'g'riligini o'rganib chiqadi. 3. Platformaga tender predmeti to'g'risidagi e'lonni joylashtiradi.	3 ish kuni mobaynida
5-bosqich	Talabgor	1. Elektron platformada ro'yxatdan o'tadi. 2. E'longa muvofiq loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladigan qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta'mirlanadigan obyekt joylashgan hududga (joyning o'ziga) chiqqan holda joyni o'rganib chiqadi. 3. 24 soat davomida xabardor qilish imkonini beradigan mobil telefon raqami va elektron manzilni platformaga kiritadi hamda shaxsiy kabinetini ochadi.	10 ish kuni mobaynida
6-bosqich	Oferent	Shaxsiy kabinetini orqali xarid predmeti bo'yicha tenderda qatnashish uchun platformaga STIR xos raqamini kiritadi.	5 daqiqa ichida

7-bosqich	Platforma	<p>Kiritilgan oferentning STIR bo'yicha platforma vazirlik, tashkilot va tizimlarning ma'lumotlar bazasidan avtomatik tarzda quyidagilarni:</p> <p>a) "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimidan loyiha-qidiruv tashkilotlari elektron reytingida mavjudligi hamda xarid predmetining qiymati va xavf-xatar toifasiga mosligini;</p> <p>b) Davlat soliq qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasidan soliqlardan muddati o'tgan qarzdorligining mavjud emasligini hamda joriy yil uchun moliyaviy majburiyatlari hajmi oferent tomonidan so'nggi uch yillik hisobot davrining bir yilida bajarilgan eng yirik ishlar hajmini 2 baravardan oshmaganligini;</p> <p>v) Markaziy bankning elektron ma'lumotlar bazasidan oferentning xizmat ko'rsatuvchi bankdagi asosiy va ikkilamchi bank hisobraqamida 2-son kartoteka qarzdorligi hamda bank kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligini;</p> <p>g) Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining elektron ma'lumotlar bazasidan oferentning o'z balansidagi asosiy fondlariga va mulkiga taqiq qo'yilmaganligini;</p> <p>d) Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining elektron ma'lumotlar bazasidan platformada o'z taklifini biriktirgan oferentlar va davlat buyurtmachisi o'rtasida affillanganlik xususiyati mavjud emasligini;</p> <p>e) ushbu bosqichdan ijobiy natijalar bilan o'tgan oferentlar Nizomga 3 — 5 ilovalarni to'ldirgan holda platformaga yuklaydi. Platforma tizimda yuklangan QQS bilan taklif narxining QQS bilan boshlang'ich narxidan baland va ushbu Nizom 9-bandining "d" kichik bandiga muvofiq 95, 90, 80 va 75 foizidan past emasligini, shuningdek, taklif etilgan qurilish muddati obyekt bo'yicha</p>	10 daqiqa ichida
-----------	-----------	--	------------------

		<p>belgilangan qurilish muddatidan kam yoki ko'p emasligini;</p> <p>j) platformaning o'z tizimidan obyektning QQS bilan boshlang'ich narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati operator tomonidan ochilgan hisobraqamga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshirilganligini tekshiradi.</p>	
8-bosqich	Platforma	<p>1. Oferentlar takliflarini tegishli formula yordamida avtomatik ravishda baholaydi.</p> <p>2. G'olib va zaxiradagi g'olib tashkilotlarni aniqlaydi.</p>	2 ish kuni ichida
9-bosqich	Platforma	Baholash natijalari bo'yicha elektron hisobotni shakllantiradi va ochiq ko'rinishda joylashtiradi.	5 daqiqa
10-bosqich	Platforma	Elektron tenderda g'olib bo'lgan loyiha-qidiruv tashkilotiga aksept yuboradi.	10 daqiqa
11-bosqich	G'olib loyiha tashkiloti	Akseptni tasdiqlaydi, 1 ish kundan keyin tender predmeti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi avtomatik ravishda elektron imzolangan hisoblanadi. Agar aksept yuborilgan kundan boshlab 1 ish kuni ichida g'olib tashkilot tomonidan tasdiqlanmasa, aksept zaxiradagi g'olibga yuboriladi va zaxiradagi g'olibga qo'shimcha 1 ish kuni ichida akseptni tasdiqlashga muddat beriladi.	1 ish kuni ichida
12-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Aksept tasdiqlanishi natijasida avtomatik ravishda elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi bo'yicha belgilangan tartibda birinchi avansni moliyalashtirilishini ta'minlaydi.	loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi shartlari asosida
13-bosqich	Platforma	Obyektning boshlang'ich QQS bilan narxidan 2 foizdan ortiq bo'lmagan tender taklifini ta'minlash kafolati summasini g'olib va zaxiradagi g'olib tashkilotlar va oferentlarning bank hisobraqamiga bank xarajatlari hamda	1 ish kuni mobaynida

		g'olib/zaxira g'olibining (aksept tasdiqlangan taqdirda) kafolat summasidan tanlov tashkilotchisi xarajatlarini avtomatik to'lash uchun tegishli summa ushlangan holda avtomatik ravishda qaytariladi.	
--	--	--	--

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida nizomga
2-ILOVA

“KELISHILDI”

“TASDIQLAYMAN”

Foydalanuvchi vazirlik

Buyurtmachi tashkilot rahbari

va idoralar rahbarlari

(F.I.O.)

20__ y. “__” _____

20__ y. “__” _____

_____ obyektining
(obyekt nomi, manzili)

Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun
TOPSHIRIQ

T/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1.	Obyektning nomi.	Obyektning nomi to'liq kiritiladi (qisqartmalarsiz).
2.	Qurilish joyi.	Obyektning yuridik manzili (shahar, tuman, ko'cha)
3.	Buyurtmachi.	Buyurtmachining nomi va uning rekviziti, manzili, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, mas'ul shaxs.
4.	Ishlab chiqish uchun asoslar.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, qarori, farmoyishi. Vazirlar Mahkamasi qarori, farmoyishi.
5.	Loyiha bosqichi.	Namunaviy loyiha (NR raqami, Qurilish vazirligi buyrug'i asosida texnik kengash bayoni)

6.	Qurilish turi.	Yangi qurilish, qayta qurish (zamonaviylashtirish, kengaytirish, texnik qayta jihozlash bilan bog'liq).
7.	Obyektning loyihaviy quvvati.	Binoning: maktabda (o'quvchi soni); maktabgacha ta'lim muassasasida (tarbiyalanuvchilar soni); tibbiyot muassasasida (shifoxonada — to'shak o'rinlari; poliklinika — kunlik qatnovchilar soni); turar-joy binolarida (xonadon soni) va boshqalar.
8.	Moliyalashtirish manbai.	Respublika budjeti va ularga tenglashtirilgan, davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar, xususiy mablag'lar, homiylar va grant quyilmalari mablag'lari, to'plangan mablag'lar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.
9.	Qurilishning taxminiy bahosi (mln so'm).	O'xshash obyektlar yoki yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar asosida aniqlanadigan qurilishni umumiy qiymati.
10.	Obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, unumdorligi, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek, turar joy yoki umumiy binolar.	Loyihalashtirish jarayonida olinishi zarur bo'lgan loyihalashtirish obyektini to'liq tasnifi, uni asosiy sifati.
11.	Umumiy xizmat ko'rsatish korxonalarida qurilgan turar joy uylarni vazifasi va turi, ularning quvvati, sig'imi, qabul qilish qobiliyati, tarkibi va xonalar maydoni, qurilish hajmi.	Ushbu shartlar turar joy binolari uchun ko'rsatiladi. Loyihalashtirish obyekti tarkibida shunday obyektlar bo'lgan holatlarda to'ldiriladi. Loyihalashtirishning barcha ko'rsatkichlari nazarda tutiladi.
12.	Mahsulotlarning raqobatbardoshlik sifatiga va ekologik parametrlariga talablar. Korxonaning texnologiyasi va rejimiga bo'lgan talablar.	Ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha talablarni ko'rsatish-texnologik topshiriq, ishlab chiqarish texnologiyasini batafsil tariflash, texnologik asbob-uskunalar ta'siridan hosil bo'ladigan yuklamalar, talab qilingan maydonlar, texnologik uskunalarning o'ziga xos shartlari, ishlab chiqarish jarayoni va shu kabilarni ta'riflash va boshqalar. Texnologik topshiriq tayyorlanishining muhimligiga alohida e'tibor qaratish, uning sifati loyihalashtirish obyektini funktsionalliligi va buyurtmachi ehtiyoji uchun kerakliligiga bog'liq. Ko'plab yirik tashkilotlar, ayniqsa, tarmoqli kompaniyalar texnologik jarayonlar talablarini to'la tavsiflash lozim.
13.	Obyektning texnologik jihozlash.	Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi.

1 4.	Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardoqlashga talablar.	<p>Qurilish vazirligining (mc.uz/namunaviy-loyihalar-11/) rasmiy-veb saytiga joylashtirilgan obyektning namunaviy loyihalariga qo'llanilgan loyihaviy yechimlardan, tugunlardan foydalanish.</p> <p>Binolar, xonalar va ularning maydonlarini joylashishi bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.</p> <p>Binolarda qurilish materiallarini ularning alohida konstruksiyalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.</p>
1 5.	Xonalar tarkibi, foydalanish maqsadi.	Buxgalteriya — aniq mutaxassisligi bo'yicha ishchi o'rni.
1 6.	Xodimlarni aniq mutaxassisligi bo'yicha xonalarga taqsimlanishi.	1 odam uchun mo'ljallangan maydon (m kv).
1 7.	Bino qavatlarining balandligi.	Tasdiqlangan me'yor bo'yicha.
1 8.	Yerto'ladan foydalanish maqsadi.	Yerto'la va yarim yerto'lalarning maydoni, balandligi va foydalanish maqsadi ko'rsatiladi.
1 9.	Pol qoplamalarining materiallari (aniq ko'rsatilishi shart).	Pol qoplamalarini to'liq qatlam xomashyosini ketma-ketligini ko'rsatib o'tiladi.
2 0.	Shiftlarni pardoqlash turlari.	Normativ hujjatlarga asoslanib (sanitariya va yong'in xavfsizligi me'yorlarini hisobga olgan holda).
2 1.	Tashqi devorning issiqlik himoyasi.	Energiya tejamkor materiallardan foydalanish.
2 2.	Derazaga bo'lgan talab.	<p>“Yog'ochsozlik materiallari katalogi” — 90 (KSI-90);</p> <p>ShNQ 2.01.02-04 “Binolar va inshootlarning yongin xavfsizligi”;</p> <p>ShNQ 2.08.01-05 “Turar-joy binolari”;</p> <p>ShNQ 2.08.02-09 “Jamoat binolari va inshootlari” talablaridan chiqmagan holda;</p> <p>Darchasiz og'ma derazalar o'rnatish ko'zda tutiladi.</p>
2 3.	Eshikka bo'lgan talab.	<p>“Yog'ochsozlik materiallari katalogi” — 90 (KSI-90);</p> <p>ShNQ 2.01.02-04 “Binolar va inshootlarning yongin xavfsizligi”;</p> <p>ShNQ 2.08.01-05 “Turar-joy binolari”;</p> <p>ShNQ 2.08.02-09 “Jamoat binolari va inshootlari” talablaridan chiqmagan holda;</p> <p>eshiklar ostonasiz o'rnatilishi ko'zda tutiladi.</p>

2 4.	Liftning o'lchami va quvvati.	ShNQ 2.08.01-2019-yilgi "Turar-joy binolari" 13-ilovaga muvofiq (majburiy).
2 5.	Tom qismining turi.	Me'moriy yechimidan kelib chiqqan holda namunaviy tugunlardan foydalanish.
2 6.	Tashqi fasad materiali va rang namunasi.	Qurilish boshqarmasi va tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda.
2 7.	Hovli devorlari bo'yicha talablar.	Kam xarajatli, ixcham va me'yor doirasida namunaviy tugunlardan foydalanish.
2 8.	Obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga talablar.	Tutash maydonlarni, daraxtlar o'tkazish, shoxobcha yo'llarni, piyodalar yo'lakchalari yotqizish, avtoturargoxlar, bolalar o'yin maydonchalarini obodonlashtirish, irrigatsiya tizimlarini o'rnatish va boshqarish bo'yicha talablarning ta'rifi hududlarning tasdiqlangan batafsil rejalashtirish loyihasiga (PDP) asosan bayon etiladi. Namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.
2 9.	Obodonlashtirishdagi ish turlari va daraxtlar soni.	Daraxtlarning iqlimga va hududga mosligi, suvsizlikka chidamliligi, ko'p yillikligi. Bino va inshootlarni joylashtirishda mavjud daraxtlarga zarar yetkazmagan holda loyihalash. Namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.
3 0.	Piyoda yo'laklarining o'lchovlari va turlari.	Sifatli, kam xaraj, ixcham va arzon materiallarni qo'llash. ShNQ 2.05.02-07 "Avtomobil yo'llari" 4.41-bandi 22-jadvalga asosan. Namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.
3 1.	Konstruktiv yechimlarga, yuk ko'tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar.	Devorlar, qoplamalar (tomlar), bostirmalar, fermalar, to'sinlar va shu kabi boshqa talablarni to'liq ko'rsatish. Yuk ko'tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallariga qo'yiladigan asosiy talablarni yoritish. Zilzilabardoshlik bo'yicha talablar (texnik pasport).
3 2.	Muhandislik va texnologik asbob-uskunalariga, texnologik jihozlarga qo'yiladigan talablar. Texnologik asbob-uskunalarining ro'yxati.	Isitish, sovitish, ventilatsiya, ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr tarmoqlari va texnologik asbob-uskunalar tavsifi va ularni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berish. Sensorli yoritish vositalaridan foydalanish.

		Dastgohlarning aniqligi va tayyorlanishi bo'yicha klassi, shuningdek, ularning bajarilish sifati va bardoshlilik talablari.
3	Quyosh batareyalari va quyoshli suv isitish kollektorlarining quvvatlari.	ShNQ 2.04.16-18 "Quyoshli issiq suv ta'minoti qurilmalari" talablariga asosan ishlab chiqilganligi.
3	Issiqlik ta'minoti.	QMQ 2.04.07-99 "Issiqlik tarmoqlari" talablariga asosan ishlab chiqilganligi. Texnik xulosalarni taqdim etish.
3	Avtomatlashtirish, TJ BAT va boshqaruvni markazlashtirish bo'yicha asosiy talablar.	Avtomatlashtirish, TJ BAT va boshqaruvni markazlashtirish tizimlari bo'yicha tavsifi va qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatmalar berish. Jihozlar ro'yxati.
3	Mehnat gigiyenasi va xavfsizlik rejimi talablari.	Loyiha hujjatlari tarkibida "Ishchilar mehnatini tashkil etish va sharoitlar" bo'limi ishlab chiqilgan hollarda ushbu bo'limga talablar ko'rsatilsin. Sanoat obyektlari uchun qo'llaniladi.
3	Loyihalashtirish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi.	Loyihalashtirish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi keltiriladi. Loyiha-qidiruv tashkiloti bilan kelishilgan holda, ularning o'zlari tomonidan yig'iladigan dastlabki ma'lumotlar (hujjatlar) ro'yxati bayon etiladi. ShNQ-1.03.01-16ga muvofiq injener-geologik va topografik materiallar buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi. Topografik xaritada mavjud bino va inshootlar hamda yer osti va yer usti tarmoqlari ko'rsatilishi talab etiladi.
3	Atrof muhitni muhofaza qilish va saqlash bo'yicha talablar.	Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida Atrof muhitga ta'siri bayonoti (AMTB) loyihasi ixtisoslashtirilgan tashkilot bilan alohida shartnoma asosida buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi. Talab etilgan holatlarda ekologik toza qurilish materiallaridan foydalanish, yashil qurilish elementlarini qo'llash yoki tashqi energiya resurslarining iste'molisiz (kamaytirilgan) talablar va shartlar qo'llanilishi zarurati ko'rsatiladi.
3	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar.	Qurilish materiallari va mehnat resurslari, shuningdek, mashina-mexanizmlarni hisoblash bo'yicha tuziladigan smetalar tarkibiga quyiladigan talablar aks ettiriladi.

		<p>Narxlar joriy qiymatlarda, ShNQ 4.01.16-09 “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” talablari asosida belgilanadi.</p> <p>Qurilishning joriy narxlardagi dastlabki qiymati buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi yoki uning topshirig‘iga asosan loyiha tashkiloti tomonidan aniqlanadi.</p>
4 0.	Loyihalashtirilayotgan obyekt tarkibi.	Barpo etilayotgan obyektning butun asosiy hamda yordamchi bino va inshootlari ro‘yxati ko‘rsatiladi.
4 1.	Qabul qilinadigan loyiha yechimlarida Energiya samaradorlikni ta‘minlash bo‘yicha talablar.	<p>Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda 2-darajali energiya samaradorlikni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutish va obyektlar energiya resurslarini o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar majburiydir.</p> <p>Bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshiriladi.</p>
4 2.	Favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va fuqaro muhofazasi bo‘yicha ishlab chiqiladigan texnik-muhandislik chora-tadbirlarga qo‘yiladigan talablar.	Agar obyekt favqulodda vaziyat bo‘yicha toifalangan bo‘lsa, FVV bo‘yicha texnik shartlarga dalil keltiriladi xamda ushbu bo‘limni ishlab chiqishni zarurligi to‘g‘risida ko‘rsatma beriladi.
4 3.	Sanoat xavfsizligi bo‘yicha texnik-muhandislik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha talablar.	“Sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablariga muvofiq ko‘rsatiladi yoki amaldagi normativ-huquqiy va shaharsozlik hujjatlariga muvofiq bayon etiladi.
4 4.	Aholining nogironligi bo‘lgan va kam harakatlanuvchi guruhlari hayoti va faoliyati sharoitlarini ta‘minlash bo‘yicha talablar.	ShNQ 2.07.02 talablarida ko‘rsatilmagan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning va harakatlanishi cheklangan insonlar obyektga kirish-chiqishlarini ta‘minlash va binoda bo‘lishlari vaqtida harakatlanishi bo‘yicha yaratiladigan sharoitlar bo‘yicha qo‘shimcha talablarni ko‘rsatish.
4 5.	Yonginga qarshi kurash va xavfsizlik bo‘limini ishlab chiqish bo‘yicha talablar.	<p>Bo‘lim normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqiladi.</p> <p>Zarur hollarda ushbu bo‘limni ishlab chiqish uchun bo‘yicha qo‘shimcha talablar va yonginga qarshi kurash moslamalari va avtomatikasi turlari ko‘rsatib o‘tilsin.</p> <p>FVVning Yongin xavfsizlik boshqarmasi bilan kelishilishi talab etiladi.</p>
4 6.	Ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash bo‘yicha talablar.	Zarur hollarda, obyekt maketi, 3D-taqdimot, namoyish albomlarini tayyorlash zarurligi, shuningdek, taqdimot materiallariga talablarni

		<p>ko'rsatish (slyayd, video rolik va boshqalar) va ularning o'lehamlari ko'rsatiladi.</p> <p>Bunday materiallarni Arxitektura-shaharsozlik kengashida hamda mutasaddi idoralar va tashkilotlar bilan kelishish holati va zarurligi yoritiladi.</p>
4 7.	Korxonaning ishlash rejimi.	Obyektning yil davomida ishlashi yuklanganligi va korxonaning ish smenaligi ko'rsatiladi.
4 8.	Ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Korxonada infratuzilmasi.	Korxonaning sheriklar va hamkorlar bilan birgalikdagi ishlashi, shuningdek, uni infratuzilmasi tarkibi ko'rsatiladi
4 9.	Tashqi transport aloqalari va ta'minot sxemasi.	Xom ashyo, materiallar, asbob-uskunalarni korxonaga olib kelish va undan olib ketishni tashkil etish sxemasi ko'rsatiladi.
5 0.	Qurilish mo'ljallangan muddatlar (yil).	Qurilishning boshlanish va tugatish muddatlari ko'rsatiladi (hisobiy yoki ko'rsatma bo'yicha).
5 1.	Loyihalashtirish va qurilishni o'ziga xos shartlari.	Loyihalashtirishni qiyinlashtiruvchi shart-sharoitlar (qurilish maydonining torligi va qiyinchiligi, obyektning tarixiy qurilish zonasida joylashtirish, madaniy meros obyektlari mavjudligi, daraxtlar mavjudligi, qurilish obyektining noyobligi, loyihalashtirish va qurilishni ishlayotgan korxonada amalga oshirish, qurilishni iqlimi sharoitlari og'ir, tog'li, yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda amalga oshirish va boshqalar yoritiladi. Obyektning murakkablik toifasi ko'rsatiladi.
5 2.	Loyiha hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish (loyiha tashkiloti tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishni hisobga olmaganda).	<p>Loyiha hujjatlariga o'zgartirish kiritish alohida imzolangan shartnoma va loyihalash uchun topshiriq asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Topshiriqda loyiha hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar bayon etiladi.</p>
5 3.	Metall konstruksiyalarning va korxonada ishlab chiqariladigan muhandislik tarmoqlarining detallashtirilgan (KMD) chizmalarini ishlab chiqish.	<p>Ishlab chiqaruvchi korxonada tomonidan yoki buyurtmachining talabi asosida qo'shimcha to'lov evaziga loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi.</p> <p>Topshiriqda bunday hujjatlar ishlab chiqarilishi zarurati ko'rsatiladi.</p>
5 4.	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) ishlab chiqish.	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) — to'liq hajmda ShNQ 3.01.01-03 ga muvofiq ishlab chiqiladi.
5 5.	Qurilishning (qurilish-montaj ishlari) ishlab chiqarish loyihasi (QICHL) tayyorlash, qurilish tashkilotlarining ehtiyojlari uchun vaqtincha bino va inshootlar qurilishi	<p>Bunday hujjatlar alohida shartnoma shartlari asosida tayyorlanadi.</p> <p>Topshiriqda bunday hujjatlarni ishlab chiqish zarurati ko'rsatiladi.</p>

	uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqishga talablar .	
5 6.	Qurilishda mualliflik nazorati.	<p>Mualliflik nazoratini olib borish tartibi talablaridan kelib chiqqan holda shartlar kiritiladi.</p> <p>Loyiha tashkiloti tomonidan mualliflik nazoratini olib boruvchi mutaxassislarini biriktirish, ularni turar joy va xizmat xonalari, zarur jihozlar va asbob-uskunalar, ovqatlanishi hamda ish joyidan qurilish maydonigacha transport vositalari bilan ta'minlash talablari bayon etiladi.</p> <p>Mualliflik nazoratini olib borish uchun o'zaro hisob-kitoblar va xarajatlarni qoplash shartlari ko'rsatiladi.</p>
5 7.	Korxonaning istiqboldagi kengayishi, foydalanishga topshirish navbatlari va qabul qilish komplekslarini ko'rsatish.	Korxonaning istiqboldagi kengayishi bo'yicha chora-tadbirlar, foydalanishga topshirish navbatlari va qabul qilish komplekslarga bo'lish shartlari ko'rsatiladi.
5 8.	Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha talablar.	<p>Loyiha-smeta hujjatlarining bo'limlarini kelishish zarur bo'lgan mutasaddi idoralar va xizmatlarning to'liq ro'yxati ko'rsatiladi.</p> <p>Buyurtmachi va loyihachining ishtiroki darajasi bayon etiladi.</p>
5 9.	Taqdim etiladigan loyiha-smeta hujjatlarining nusxalari soni, bo'limlarining tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar.	<p>Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga taqdim etish uchun buyurtmachiga bir nusxada (qog'oz yoki elektron shaklda) taqdim etiladi.</p> <p>To'g'rilangan hujjatlarning buyurtmachiga taqdim etiladigan nusxalari soni ushbu ShNK-1.03.01-16 ning 13.7 bandi talablariga mos ravishda bo'lishi shart.</p> <p>Buyurtmachi tomonidan qo'shimcha nusxalar olish bo'yicha, loyiha tashkiloti bilan kelishgan holda, shartlar qo'yilishi mumkin (shu jumladan, ularning elektron nusxalari).</p> <p>Bunda elektron hujjatlarning formatlari va ularni tashish vositalari ham kelishib olinadi.</p>
6 0.	Qo'shimcha talablar.	Buyurtmachi tomonidan loyiha tashkilotiga yuklanadigan hamda uning malakasi va tajribasiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar kiritiladi.

Buyurtmachi: _____

Kelishildi: _____

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish topshirig'iga buyurtmachi tomonidan ilova etiladigan hujjatlar

RO'YXATI

1. Yangidan qurish rejalashtirilgan obyekt uchun yer maydonini ajratish to'g'risidagi qaror (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qaroriga muvofiq davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi).
2. Topografik ma'lumotlar (obyektni mavjud muhandislik tarmoqlariga ulanish joylari ko'rsatilgan holda vaziyatli reja hamda muhandislik-geologiyasi, gidrogeologiya materiallari).
3. Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.
4. Obyektni joylashtirish rejalashtirilgan hudud bo'yicha epidemiologik va ekologik xulosa (shu jumladan, qurilish maydonchasida saqlab qolinishi lozim bo'lgan dov-daraxtlar bo'yicha xulosa), madaniy meros va tarixiy obidalar muhofaza hududida emasligi to'g'risida xulosa.
5. Qurilish rejalashtirilgan hududda buziladigan bino va inshootlarni buzish yoki o'rini qoplash xususiyati haqida mahalliy hokimiyat idoralari yoki buyurtmachi xizmat kafolatlari.
6. Qurilishni tashkillashtirish loyihasini tuzish uchun dastlabki ma'lumotlar.

Izoh. Ushbu Nizomga 2-ilova hamda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish topshirig'iga buyurtmachi tomonidan ilova qilinadigan hujjatlar tarkibiga qurilish vazirining buyrug'i bilan o'zgartirish kiritish mumkin.

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

(oferent nomi)

TENDER PREDMETI BO'YICHA ISHLARII BAJARISHGA

NARX TAKLIFI

(tender predmetining nomi)

1. Biz, oferent sifatida quyida imzo chekuvchilar:
tender predmeti bo'yicha e'londa biriktirilgan ma'lumotlar asosida tender predmeti joylashgan manzilga chiqib o'rganimizni;
akseptni tasdiqlashimiz natijasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi avtomatik elektron imzolanishidan hamda imzolanganidan so'ng obyektning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishdan bosh tortganimizda, bosh tortgan kunimizdan boshlab 24 oy davomida elektron tenderga avtomatik ravishda qo'yilmasligimiz to'g'risida xabardorligimizni; elektron tender shartlariga va loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq tasdiqlangan aksept natijasida avtomatik ravishda elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risidagi shartnomamizga asosan barcha ishlarni _____ so'm (QQSni hisobga olgan holda) sifatli bajarishimizni tasdiqlaymiz.
2. Akseptni tasdiqlashimiz natijasida avtomatik ravishda elektron imzolangan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasida nazarda tutilgan kundan e'tiboran ishlarni

boshlash hamda _____ kun ichida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va buyurtmachiga topshirish majburiyatini olamiz.

3. Bizning taklifimiz tender takliflarini baholash kunidan boshlab 60 kalendar kun mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

4. Akseptni tasdiqlashimiz bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnomasi biz tomondan elektron imzolangan hisoblanadi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq o'z zimmamizga olamiz.

5. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida jalb qilingan barcha, shu jumladan, yollanma ishchilarning ijtimoiy himoyasi va xavfsizligini ta'minlaymiz.

6. Buyurtmachi bilan o'zaro hisob-kitoblarni birinchi moliya yili mobaynida o'zgartirilmaydigan shartnomaviy narxda amalga oshirish majburiyatini olamiz.

Tashkilot rahbarining imzosi:

Tuzilgan sanasi: 20__ yil "___" _____

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
4-ILOVA

Obyektning nomi: " _____ "

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish

KALENDAR ISH JADVALI

T/r	Ishning nomlanishi	Ishning muddati (boshlanishi va yakunlanishi)	Ishning narx qiymati (so'm) va moliyalashtirish sanasi
1.		Boshlanishi: Yakunlanishi:	

Jami: QQS bilan _____ (_____).

Buyurtmachi:

" _____ "

Bosh loyihachi:

" _____ "

Direktor _____

Direktor _____

Qurilish sohasida loyiha-qidiruv tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
5-ILOVA

Obyektning nomi: " _____ "

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha

SMETA HISOBI

T/r	Ish turlari	Asos		Narxning kelib chiqishi	Qiymat (ming so'm)
1.					
	Jami QQSii hisobga olmaganda:				
	Jami QQS bilan:				

Jami: KKS bilan _____ (_____),

Direktor _____

Loyihaning bosh muhandisi _____”.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2022-y., 09/22/665/1059-son)